

**O'TANOV O'TKIR QURBONOVICH**

**O'QITUVCHI MA'NAVIY  
QIYOFASINI RIVOJLANTIRISH**

Samarqand - 2024

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA  
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**O'tanov O'tkir Qurbonovich**

**O'QITUVCHI MA'NAVIY QIYOFASINI  
RIVOJLANTIRISH  
(Uslubiy qo'llanma)**

**"Bilik-ilmiy faoliyat" nashriyoti  
Samarqand - 2024**

**UDK 373.0:008(575.1)**

**BBK 74.200.53 U 97**

**O‘tanov O‘.Q. O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlantirish.**  
Uslubiy qo‘llanma. – “Bilik-ilmiy faoliyat” nashriyoti, 2024. – 60 bet

*Mazkur qo‘llanmada bugungi kunda porloq istiqbol sari dadil odimlayotgan, o‘z oldiga yangi Renessans davrini barpo etishdek ulug‘vor maqsadni qo‘ygan O‘zbekiston taraqqiyotini yuqori cho‘qqilarga olib chiqishda asosiy tirgak bo‘lgan o‘qituvchi – pedagoglarning ma’naviy qiyofasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlari aks etadi. Ushbu uslubiy qo‘llanma ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilar, jumladan o‘qituvchi-pedagoglar ma’naviy qiyofasini rivojlantirish faoliyati bilan qiziquvchi barcha pedagoglarga ma’lum darajada xizmat qiladi.*

**Mas’ul maharrir:**

Ibragimov A.A. – Pedagogika fanlari doktori, v.b professor.

**Taqrizchilar:**

Qosimova O.X. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Raximov A.A. Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

*Uslubiy qo‘llanma Samarqand viloyat PYAMO‘MM Ilmiy metodik kengashining 2023 – yil 26 noyabrdagi 5–sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.*

ISBN: 978-9910-9530-9-5

© O‘tanov O‘.Q.  
© “Bilik-ilmiy faoliyat” nashriyoti.

## **MUNDARIJA**

### **SO‘Z BOSHI .....**

#### **I BOB. O‘QITUVCHI MA’NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI**

1.1-§.Shaxs ma’naviy qiyofasini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik tahlili.....

1.2-§.O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlanirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida .....

1.3-§.O‘zbekistonda o‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlanirilishining konseptual asoslari.....

#### **II BOB. O‘QITUVCHI MA’NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI**

2.1-§. O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlanirishda ajdodlar merosidan foydalanish.....

2.2-§. O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni .....

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....**

## **SO‘ZBOSHI**

Jahonda o‘qituvchilarning kasbiy darajasi, individual xususiyatlari, kasbiy salohiyatini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishning kreativ texnologiyalari ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etilmoqda. Birlashgan millatlar tashkilotining Bosh Assambleyasi tomonidan 2015-yilda ishlab chiqilgan barqaror rivojlanish maqsadlariga asosan ta’limni rivojlantirishga qaratilgan sifatli ta’lim xizmatlarini taklif etish, zamonaviy ta’lim jarayonini rivojlantirish davrida o‘qituvchi ma’naviy qiyofasini umumlashtirilgan yondoshuvlar asosida rivojlantirish, pedagog shaxsining xarakterli xususiyatlari, ijtimoiy muhitning talablariga javob beradigan individual-pedagogik yo‘nalishlarni takomillashtirish bo‘yicha yirik loyihalarni amaliyatga tatbiq etishga doir tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jahonda ta’lim muassasalari faoliyatini takomillashtirishda mehnat bozori talablariga moslashtirish orqali raqobatbardosh pedagog kadrlar ma’naviy qiyofasini takomillashtirish, ta’lim modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan qurollantirish asosida pedagoglarning kasbiy-innovatsion ko‘nikmalarini rivojlantirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga o‘qituvchi ma’naviy qiyofasini tavsiflovchi umumlashtirilgan individual pedagogik-psixologik xususiyatlarni ekspertli baholash, pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlantiruvchi texnologiyalarni takomillashtirish, psixologik to‘siqlarni bartaraf etishda ijtimoiy-psixologik sharoitlarni ta’minalash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda so‘ngi yillarda ta’lim mazmunini, metodologiyasini o‘zgartirish asosida umumiyligi rivojlanish strategiyamizning muhim qismi bo‘lgan ta’lim sohasini rivojlantirishga a’lovida e’tibor qaratilib, o‘qituvchi shaxsiga bo‘lgan muhim talablarni aniqlash, kasbiy kompetentligini faol shakllantirish, ularning faoliyat jarayonida shaxsiy va kasbiy fazilatlarni namoyon qilish, ularda tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishning meyoriy-huquqiy asoslari yaratilmoqda.

Shu nuqtai nazardan “..mактабда фоилият олиб бориши учун гар бир фан бо‘йича мажлий ўюк халқаро сертификация талабларини белгилаш”, “..тоифага ега бо‘лмаган мактаб о‘qituvchilarining билим ва ко‘nikmalarini diagnostikadan o‘tkazish”, “..умумта’лим мактабларини, аниqlsa, chekka hududlardagi ta’lim maskanlarini oliy ma’lumotli pedagog kadrlar bilan to‘ldirish ishlarini davom ettirish”, “..мактабларда

direktor va uning o‘rinbosarlarini tayinlash tizimini maktab o‘qituvchilari va ota-onalarning ishtiroki ta’minlanishini nazarda tutgan holda yanada takomillashtirish”, “..xalq ta’limi tizimi tuman bo‘linmalari faoliyatini to‘liq raqamlashtirish hisobiga optimallashtirish” vazifalari belgilab berildi. Ushbu vazifalarni ijrosini ta’minlash pedagoglarni ma’naviy qiyofasini rivojlantirishni, pedagog xodimlarni har tomonlama rivojlanishi uchun sharoit yaratishni, zamonaviy ijtimoiy-kasbiy munosabatlarning jamiyatning tegishli ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirmoqda.

Mazkur qo‘llanmada bugungi kunda porloq istiqbol sari dadil odimlayotgan, o‘z oldiga yangi Renessans davrini barpo etishdek ulug‘vor maqsadni qo‘ygan O‘zbekiston taraqqiyotini yuqori cho‘qqilarga olib chiqishda asosiy tirdgak bo‘lgan o‘qituvchi – pedagoglarning ma’naviy qiyofasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy jihatlarini aks etadi.

# I BOB. O'QITUVCHI MA'NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

## 1.1-§. Shaxs ma'naviy qiyofasini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik tahlili

Ijtimoiy-gumanitar fanlarda, xususan, pedagogikada “shaxs” haqida gap ketganda ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy mohiyatni o‘z vujudiga singdirgan odam tasavvur qilinadi. Shuningdek, fanda “odam”, “individ”, “inson”, “shaxs” degan tushunchalarning ta’riflari allaqachon berilgan, ushbu yo‘nalishda yuzlab, balki undan ham ziyod ilmiy, falsafiy va pedagogik-psixologik tadqiqotlar olib borilgan. “Shaxs” degan tushuncha faqat biofiziologik emas, eng avvalo ijtimoiy-ma’naviy mazmunga ega bo‘lganligi nuqtai nazaridan har qanday odamni shaxs deb bo‘lmasligi ham fanda isbotlangan haqiqatdir.

Umuman, shaxs haqida, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni, ahamiyati, roli masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-falsafiy va pedagogik-psixologik tadqiqotlarning salmog‘i ancha baland. Ularni o‘rganish, tahlil qilish asnosida “shaxs” degan atamaga ko‘plab ilmiy ta’riflar berilganligi ham bor gap. Zamonlar o‘tib, ushbu tushunchaning mazmun-mohiyati o‘zgarib va kengayib borishi nuqtai nazaridan “shaxs” degan tushunchaga beriladigan ta’rifu tavsiflarning mazmuni ham boyib borishi tayin. Tadqiqotlarimiz davomida olingan ilmiy natijalardan kelib chiqib, ushbu tushunchaga quyidagicha ta’rif bersak o‘rinli, deb o‘ylaymiz: *shaxs - o‘zining ma’naviy qiyofasiga ega bo‘lgan betakror tarixiy hodisa bo‘lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan, uning ta’sirida rivojlanib, takomillashib boradigan ijtimoiy munosabatlar, ma’naviy xususiyatlarni o‘zida mujassamlagan tushuncha.* Ushbu ixchamgina ta’rif, o‘ylaymizki, tadqiqotimizning mavzusi va mazmun-mohiyatiga to‘la adekvatdir.

Umuman, “shaxs”, “inson”, “individuallik” tushunchalari bahsli masalalar qatoriga kiradi. “Bu masalaning Sharq va G‘arbda o‘ziga xos talqinlari mavjud bo‘lib, ular ko‘p hollarda insonga xos muayyan xususiyatni ustuvor deb bilish asosida shakllangan. Ushbu talqinlarni hozirgi zamon nuqtai nazaridan o‘rganish inson borlig‘i masalasining tarixi uzoq ekanini, bugungi kunda ham uning falsafiy nazariyalar uchun qiziqarli ekanini anglab olish imkonini beradi”<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Falsafa asoslari. O’quv qo’llanma. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018. – B. 184.

Shaxsning ma’naviy qiyofasi uning axloqiy barkamollik, yuksak insoniylik, ezgulik, sadoqat, go‘zallik, adolat kabi ma’naviy qadriyatlarga amal qilib, ularga tayanib, suyanib yashashi bilan belgilanishi barchaga ayon, albatta. Shu nuqtai nazardan, shaxsning ma’naviy qiyofasi deganda “xalqimiz uzoq tarixi davomida turli sinovlardan o‘tib sayqal topib kelayotgan va faqat ijobiy fazilatlar tarzida e’zozlanadigan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tushuniladi”<sup>2</sup> va u jamiyatning ma’naviy hayoti yuksalib borishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. SHu bois muayyan bir millatga mansub shaxslarning ma’naviy qiyofasidan butun bir millatning, xalqning ma’naviy qiyofasi shakllanishi mumkinligi haqidagi qoida pedagogika fanida allaqachon o‘z isbotini topgan. “Ana shu mantiqiy qoidadan kelib chiqib, alohida odamlarda uchraydigan xislatlar shu jamiyat, millatning xarakteriga ham xosdir, deyish mumkin... Bunga esa mutaraqqiy mamlakatlar tarixidan ko‘plab hayotiy misollar keltirish mumkin”<sup>3</sup>.

Shaxsning ma’naviy qiyofasi “Jamiyatning ma’naviy hayoti” degan tushuncha bilan chambarchas bog‘liqdir. Boshqacha aytganda, shaxsning ma’naviy qiyofasi jamiyatning ma’naviy hayotiga mazmun-mohiyat bag‘ishlaydigan, uning yangilanish jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan tushunchadir. Ma’naviy hayot – ijtimoiy hayotning ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish, takomillashtirish, inson ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan muhim sohasidir.

Ilmiy tadqiqotlarda “ma’naviy” degan ibora haqida gap ketganda ko‘p hollarda insonning ichki olami, unda sodir bo‘ladigan turli kechinmalar, uning axloqiy hatti-harakatlari, intilishlari, aqliy-intellektual faoliyati nazarda tutiladi. Bunday tadqiqotlarda insonning ma’naviy hayoti uning amaliy faoliyati asosida vujudga kelib, tashqi dunyo – atrof-muhitning alohida in’ikosi sifatida namoyon bo‘lishi keng ko‘lamda asoslab berilgan, albatta.

Shunga qaramay, “jamiyatning ma’naviy hayoti” degan tushuncha shunchalik murakkab va keng ko‘lamli tushunchaki, uning yangidan yangi qirralari “ochilib” boraveradi va unga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqotlarning ko‘لامи ham kengayib boraveradi. Shu o‘rinda pedagogika va psixologiya fanlarida insonning ma’naviy hayoti bilan bog‘liq tadqiqotlardagi bir yoqlamalikni alohida ta’kidlash kerak. Ushbu

<sup>2</sup> Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 522-bet.

<sup>3</sup> Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – B.140.

bir yoqlamalik shundan iboratki, ularda tadqiqotlar faqatgina psixik jarayonlar, holatlar va xususiyatlar, ularning tuzilmasi, namoyon bo‘lish shakllari va mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, insonning bevosita ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasidagi o‘ziga xosliklarni o‘rganish e’tibordan chetda qolgan.

Ma’naviy hayot barqaror taraqqiy etib borayotgan har qanday jamiyatning asosini tashkil qiladi, shu ma’noda ma’naviy hayot o‘ta murakkab mohiyatga ega bo‘lgan jarayon hisoblanadi. “Ma’naviy taraqqiyot jarayonining o‘zi ma’naviy-axloqiy fazilatlar, insonparvarlik tarzida namoyon bo‘ladi”<sup>4</sup>. Jamiyatning ma’naviy hayoti to‘laqonli va boy mazmunga ega bo‘lsa, ushbu jamiyat a’zolarining farovonligini ta’minlash, ijobiy ruhiy-psixologik iqlim yaratish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bordi-yu, jamiyatning ma’naviy hayoti qashshoq va jozibasiz bo‘lsa, unda ma’naviy inqiroz, parokandalik, ruhiy tushkunlik, jamiyatning kelajagi – ertangi kuniga ishonchsizlik ham shunchalik ortib boradi.

Shu sababdan, jamiyatning ma’naviy hayoti bir tekisda, barqaror kechadigan jarayon emas, aksincha, qarama-qarshiliklar, turli shakldagi ziddiyatlar orqali namoyon bo‘ladigan jarayondir. Ushbu ziddiyatlar, ularning kurashi aynan ma’naviy hayotning murakkabligidan kelib chiqadi va, birinchi galda, odamlarning ongi, o‘y-fikrlari, maqsad muddaolarining ro‘yobga chiqishini ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan, *jamiyatning ma’naviy hayoti insoniy mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan jarayondir*, boshqacha aytganda, *faqat insonga xos mohiyatdir*. Zero, “ma’naviylik” degan tushuncha faqat inson zotiga xosdir.

Taniqli jamiyatshunos olim, professor M.Bekmurodov jamiyatning ma’naviy hayot barqarorligini saqlash shaxsning ma’naviy qiyofasini rivojlantirishning muhim omili ekanligini ta’kidlaydi: “...ma’naviy hayot maromini saqlash axloqiy tamoyillar barqarorligiga, axloqiy birdamlik esa turmush tarzi yaxlitligiga ko‘p jihatlarga ko‘ra bog‘liqdir. Insonning onglilik darjasini esa ma’naviy-axloqiy yaxlitlik omilini mustahkamlash imkonini yaratadi. Ana shu jarayonda har bir insonning o‘zi yashayotgan barqaror turmush tarzidan qoniqish holatini tarkib toptirish, hayotga qiziqish, undan zavq va surur tuyish fazilatlarini kuchaytirish katta ahamiyatga egadir”<sup>5</sup>.

<sup>4</sup>Boysunov J. Ma’naviy madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rn / Imom Buxoriy saboqlari: ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. – 2021 yil 1-son. – B.117.

<sup>5</sup>Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: “Info Capital Group” nashriyoti, 2011. – B.56.

Bayon qilinganlardan kelib chiqib, “*jamiyatning ma’naviy hayoti*” degan tushunchani *ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi bo’lgan ma’naviy munosabatlar, jarayonlar, ma’naviy yaratuvchilik, ijodkorlik mahsuli va ularning bardavomligi uchun xizmat qiluvchi muhitdir*, deb ta’riflasak to‘g‘ri bo‘ladi.

Jamiyat ma’naviy hayotining asosiy unsuri – kishilarning ma’naviy ehtiyojlari bo‘lib, ularning ma’naviy qadriyatlarni yaratish va ulardan bahramand bo‘lish jarayonlarini ifodalaydi. Ushbu jarayonlar *ma’naviy faoliyat* degan tushunchada ifodalanadi va kishilar o‘rtasidagi *ma’naviy munosabatlarning* asosini tashkil etadi. Ma’naviy faoliyat jamiyat a’zolarining atrof-muhitga munosabati, ilmiy, axloqiy, estetik va diniy qarashlarining natijasi tarzida namoyon bo‘ladi va axloqiy prinsiplar, xulq-atvor me’yorlari, xalq og‘zaki ijodi namunalari, urf-odatlar va marosimlarda ifodalanadi.

*Ma’naviy hayot deganda jamiyatning ma’naviy qiyofasi, uning boshqa jamiyatlardan farqi, ular bilan raqobati, adabiyot, san’at, ilmu urfon, ta’lim, tarbiya, ijodkorlik, yaratuvchilik sohasidagi yutuqlari, bitta jumla bilan aytganda, shu jamiyatni “tarixga muhrlaydigan jihatlari” e’tiborga olinadi.*

Odamning ichki, ma’naviy olami uning sub’ektiv dunyosidir. Sub’ektivlik esa uning moddiy va ruhiy borlig‘ining asosida yotadigan ichki boshlang‘ichdir. Ma’naviylik – ruhiy hodisalarning mazmun-mohiyatini ifodalashi bois, insonning ma’naviyati bilan bog‘lanmagan har qanday ruhiy holat mazmun-mohiyatga ega emas. Shu nuqtai nazardan, ma’naviy olami bor odam dunyoni va o‘z-o‘zini bilishga, o‘zining ichki va tashqi psixik faoliyatini baholashga, boshqarishga va nazorat qilishga qodir bo‘lgan sub’ektdir.

Insonning ichki olami ehtiyojlar, manfaatlar, qarashlar, qiziqishlar, e’tiqod, dunyoqarash, ideallar, orzu-intilishlar kabi turli-tuman shakllarda namoyon bo‘ladi. Baribir, “*insonning ruhiy-manaviy kamoloti o‘z qo‘lida, boshqa biron shaxs yoki butun jamiyat ta’siri esa shart-sharoit yaratish, yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish, o‘git-maslahat berishdangina iborat bo‘ladi, xolos*”<sup>6</sup>.

Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan kuzatishlardan kelib chiqib, quyida *shaxsning ma’naviy qiyofasini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omil va vositalarni ajratib ko‘rsatish mumkin*. Birinchidan, *madaniy va ma’naviy ehtiyojlar* shaxsning ma’naviy qiyofasining shakllanishida

<sup>6</sup>Bo’taev Sh. Kimki komil, bo’lmaq’ay q’aflat anga.. // Tafakkur: ijtimoiy-falsafiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal . – 2011 йил 3-сон. – Б.31.

katta o‘rin tutadi. Ular insonga tabiatan ato qilinmaydi, balki tarbiyaning samarasi sifatida qaror topadi. Shu sabab, madaniy va ma’naviy ehtiyojlar o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lib, shaxsning ma’naviy yuksalishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi. Madaniy ehtiyojlar narsa-buyumlarning bevosita o‘zini iste’mol qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, ma’naviy ehtiyojlar esa ularning g‘oyaviy mazmunini o‘zlashtirish orqali ifodalanadi, ularning o‘zaro farqi ham shunda. Ma’naviy ehtiyojlar olamni bilihga, muloqotga, ijodga, erkinlikka, ta’limga bo‘lgan ehtiyojlarni o‘z ichiga oladi.

Ikkinchidan, *manfaatlar* shaxsning ma’naviy qiyofasiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Manfaatlar shaxsni moddiy va ma’naviy olamdagি narsa va hodisalarga nisbatan tanlash (saralash) munosabatini uyg‘otuvchi sub’ektiv holatini ifodalaydi.

Uchinchidan, *dunyoqarash* - insonning o‘z tajribasi orqali, shuningdek, ta’lim-tarbiya jarayonida atrof-muhit va o‘z-o‘zi haqida orttirgan bilim va qarashlarini ifodalaydi va shaxs ma’naviyat shakllanishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Dunyoqarash shaxs tomonidan olamni bir butun yoki uning ayrim jabhalarini alohida holda tushunib olishni nazarda tutadi. Shaxs o‘zining dunyoqarashi orqali hayotning ma’nosи va maqsadini anglab hamda unda o‘z o‘rnini topib boradi.

To‘rtinchidan, *ishonch* – shaxs o‘z hayoti davomida amal qiladigan tamoyillarning to‘g‘ri va haqqoniy ekanligiga amin bo‘lishi, ko‘r-ko‘rona emas, balki ularga tayangan holda ongli ravishda faoliyat ko‘rsatishini bildiradi va ma’naviy qiyofaning shakllanishida g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi.

Beshinchidan, *orzu* – shaxs o‘zi istagan kelajakni aniq-tiniq tasavvur qilishi va unga intilishi. Orzu shaxsning porloq istiqbolga erishish yo‘lida o‘zining kuch-qudrati va imkoniyatlarini safarbar qilishi, yorqin kelajakni yaratishi sari ilhom beradi va uning ma’naviy qiyofasini shakllantirishga kuchli ta’sir ko‘rsatadi.

Oltinchidan, *ideal* – biror shaxsni timsol sifatida ko‘rish va unga o‘xshashga intilish. Ideal – inson uchun namuna bo‘lib tuyuladigan ma’naviy sifatlar, uning uchun eng qadrli bo‘lgan ma’naviy etuklikdir. Hayotda ideali bor inson haqiqiy optimist - doimo yaxshilikka, ezgulikka intilib yashaydi.

Ettinchidan, *axloqiy va estetik tuyg‘ular* – insonni doimo ezgulik, saxiylik, mehribonlik, mardlik, vatanparvarlik sari etaklaydi va yaxshilikni yomonlikdan, ezgulikni yovuzlikdan, go‘zallikni xunuklikdan ajrata olishiga ruhiy ko‘mak beradi.

Shaxs ma’naviyati shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi ushbu omil va vositalar bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan va jamiyatning faol a’zosi sifatida uning kamolotiga sabab bo‘luvchi eng muhim “determinantlar”dir. Ular birqalikda shaxsga o‘ziga xoslik (originallik) bag‘ishlaydi va o‘zgalardan ijobiy ma’noda “ajralib” turishiga sabab bo‘ladi. *Shaxsning o‘ziga xosligi (originalligi) – uning faoliyatidagi individuallikning namoyon bo‘lishi, amaliy va nazariy muammolarni hal qilishdagi o‘ktamligi, iste’dodi, e’tiqodi, kamchilik va illatlarga murosasizligi, adolatparvarligi, qatiyatriligi, rostgo‘yligi kabi ma’naviy-axloqiy sifatlarini bildiradi.*

Shaxsning ma’naviy qiyofasi uning tarbiyaviy(ma’naviy-ma’rifiy) saviyasini ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Ushbu mezon shaxsning qator ma’naviy fazilatlarni mujassam etganligi bilan o‘lchanadi: “bilimli, imonli, vijdonli, e’tiqodli va diyonatli, xushmuomala va intizomli bo‘lish, tartibli, bilim va dunyoqarashni boyitishga intilish, va’daga vafo qilish, odamlarga yomonlik qilmaslik, yaxshilik qilish va uni minnat qilmaslik, kattalarga hurmat va kichiklarga izzatda bo‘lish, keksalar, ayollar va bolalarga alohida hurmat ko‘rsatish, boshqalarga xayrixoh, iliq munosabatda bo‘lish, kamtarlik, boshqalarni kamsitmaslik, odamlarning kamchiligi ustidan kulmaslik, masxara qilmaslik, ojizlarni qo‘llash, atrofdagi odamlarning mehnat qilishi va dam olishiga xalaqit bermaslik, mehmondo‘stlik, o‘zining ichki va tashqi dunyosiga e’tibor berish, nutq madaniyatiga rioya qilish, jamoatchilik mulkini asrab-avaylash, jismonan va ruhan poklik va h.k.”<sup>7</sup>.

O‘zbekistonda shaxsning ma’naviy qiyofasini shakllantirish masalasiga davlat siyosati nuqtai nazardan qaralmoqda. Ayniqsa, yangi davrning yangicha qiyofasini yaratishda shaxs kamolotini ta’minlash, inson qadrini ulug‘lash har jihatdan ibratli va ezgu siyoatning amaldagi ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda. YAngi ma’naviy makon, davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev ta’kidlaganidek, – “biz orzu qilayotgan yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”<sup>8</sup>.

Jamiyatning ma’naviy poydevorini barpo etish aynan har bir shaxs haqida qayg‘urish, uning “borlig‘ini” namoyon etish, manfaatlarini ta’minlashni taqoza etadi. Shu boisdan yangi jamiyatni barpo etishdek strategik maqsad yo‘lida islohotlar samaradorligi ta’minlash davlatimiz siyosatida ustuvor yo‘nalishga aylangani bejiz emas. Shunga e’tibor

<sup>7</sup> Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 521-bet.

<sup>8</sup> Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B.276.

qaratib, Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqida Prezident Sh.Mirziyoev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan birga, ma'naviy va ma'rifiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar ham g'oyat muhim ahamiyatga ega"<sup>9</sup> ekanligini alohida e'tirof etdi.

Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, madaniy, maishiy va boshqa sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, o'z-o'zidan, ma'naviy soha rivojiga ta'sir ko'rsatadi, xuddi shu kabi, ma'naviy sohadagi o'zgarishlarning boshqa sohalardagi tub burilishlarga ta'siri kuchayadi. Buni O'zbekistonda mustaqillikning qo'lga kiritilishi va milliy istiqlol davrida erishilgan yutuqlar misolida ko'rish mumkin. Masalan, mustaqillik tufayli xalqimizga xos milliy-ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi, urf-odatlar, milliy ong, milliy psixologiya, ma'naviy madaniyat sohalaridagi asriy an'analarning qaytib kelishi o'zbek xalqining turmush tarzi va milliy ongiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bunday o'zgarish va yangilanishlar O'zbekistonning dunyo hamjamiyatida o'ziga munosib o'rinni egallashi, fuqarolarning vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'ularining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Ma'naviy sohadagi islohotlarning pirovard maqsadi ham aynan shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirish, jamiyat hayotini ijtimoiy-ma'naviy mazmun bilan yanada boyitish, inson qadr-qimmatini yuksaltirish, va, shu orqali Yangi O'zbekistonning ma'naviy poydevorini barpo etishga qaratilgan.

Yangilanish davrida O'zbekistonda shaxs ma'naviyatini rivojlantirishga e'tibor kuchayishi munosabati bilan ushbu jarayonni amalga oshirishga doir omillar va vositalarning ta'sirchanligini oshirish masalalariga ham alohida ahamiyat berila boshlandi. "Shaxs ma'naviy qiyofasi to'laqonliligi va komilligiga erishishning muhim shartlaridan biri"<sup>10</sup> sifatida ushbu jarayon, avvalo, xalqimizning milliy-ma'naviy qadriyatlarini yangilash, ularni xalqimiz o'rtasida keng targ'ib qilish, yosh o'sib kelayotgan avlod ongi va qalbiga chuqur singdirish hamda milliy mustaqillik tamoyillariga mos tarzda rivojlantirish kabi maqsadlarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>9</sup> Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qatiy davom ettiramiz. Yangi saylangan O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalari qo'shma majlisidagi nutqi// "Xalq so'zi", 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).

<sup>10</sup> Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti. Respublika ma'naviyat va ma'rifat kengashi, Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: "Info Capital Group" nashriyoti, 2011. – B.47.

Shular qatorida farzandning ota-onaga va ota-onaning farzandga bo‘lgan munosabati bilan bog‘liq qadriyatlarni keng targ‘ib qilish masalasiga e’tibor kuchaytirilganligini ta’kidlash joiz.

Xalqimizning ko‘p asrlardan buyon davom etib, o‘z qadr-qimmatini yo‘qotmay kelayotgan ma’naviy qadriyatlardan biri — ota-onani yuksak darajada e’zozlash, izzat-ikromini, hurmatini joyiga qo‘yishdek ajoyib an’ana bugungi kunda yangi mazmun va ma’no kasb etmoqda. Aslida farzand uchun dunyoda ota-onadek mehribon, aziz va mo‘tabar zot yo‘q. Ota-onalarning tayanchi, betakror boyligidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78-moddasida “Davlat va jamiyat bolalarda hamda yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni, mamlakatidan hamda xalqning boy madaniy merosidan faxrlanishni, vatanparvarlik va Vatanga bo‘lgan mehrmuhabbat tuyg‘ularini shakllantirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”<sup>11</sup>, deb belgilab qo‘yilgan.

Kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo‘lish, ota-onalarga e’zoz, farzandlarga mehr-sadoqat ko‘rsatish kabi insonni ulug‘laydigan, ma’naviy barkamol qiladigan qadriyatlarmiz shaxs sifatida shakllanayotgan yoshlarimiz uchun xos bo‘layotgani quvonchli hol, albatta.

Ota-onani e’zozlashning oddiy, sharqona talablari bo‘lmish udumlar - ularga choy uzatish, taom berishdan tortib tobi qochganda shifokorga ko‘rsatish, kerakli dori-darmonni keltirib berish, doimo ular holidan xabar olib turish, ular huzurida “uh” tortmaslik, gerdymaslik, ko‘chada yurganda otadan oldin yurmaslik, ota-onadan avval taomga qo‘l uzatmaslik, ulardan avval o‘tirmaslik, ular huzurida oyoqni uzatib yonboshlamaslik, ularga gap qaytarish har qanday insonning ma’naviy qiyofasi qandayligini namoyon qiladigan holatlardir. Ota-onaning roziliginini olgan farzand baraka topadi, ishi o‘ngidan keladi, oldiga qo‘ygan maqsadiga erishadi. Ota rozi — xudo rozi, degan hikmat bejiz aytilmagan. Ota-onasi norizo bo‘lgan farzand tunu kun yugursa ham, ishida baraka bo‘lmaydi. Bu dunyo - qaytar dunyo, nima eksang shuni o‘rasan, deydi dono xalqimiz. Ota-onangizga qilgan barcha amallar farzandga qaytadi.

Shaxsning ma’naviy qiyofasi avvalo oilada shakllanadi. Shu ma’noda oilani ma’naviyat o‘chog‘iga qiyoslash mumkin. Oila, unda

<sup>11</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

asrlar mobaynida sayqallanib kelayotgan muqaddas an'analar orqali yoshlarda Vatanparvarlik, milliy iftixor, iymon-e'tiqod, mas'uliyat, insonparvarlik, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalar shakllanadi.

O'zbek oilasining boshqa xalqlardan farq qiluvchi, o'ziga xos qoidalari, ma'naviy-axloqiy mezonlari bor. Oila odobiga ko'ra sharm-hayo, mehr-oqibat, iffat, ibo, nazokat, lafz, mas'uliyat kabi ma'naviy fazilatlar har doim ulug'lanadi. SHaxs ma'naviyatiga xos ezgu fazilatlar asosan oilaviy muhitda, yaqin qarindosh-urug'larning munosabatlari orqali shakllanadi. Bunday holat mehnatga to'g'ri munosabat, halollik, kamtarlik, urf-odatlarni muqaddas bilish jarayonida namoyon bo'ladi. Bunday sifatlarni o'zlashtira olgan har bir o'g'il-qizda ma'naviy fazilatlar rivojlanadi. Shu bilan birga, oilaviy nizo va ajralishlarning sabablari tahlil qilinganda ma'lum bo'ldiki, oila muhitining nosog'lomligi, oila a'zolari o'rtasidagi kelishmovchiliklar, o'zaro til topa olmaslik holatlari ayni paytda kamaymayapti, hattoboshqa oilalarning barqarorligiga rahna soladi. Bunday oilalarda voyaga etgan farzandlar orasida e'tiqodsiz, diyonatsiz, maqsadsiz, hayotda o'z o'rnini topa olmaslik, mehr-oqibatdan yiroqlashib borish holatlari ko'payib borayotganligi achinarlidir.

"Agar insoniyatni bugun nima asrab qoladi deya so'rassalar, men dunyoni mehr asrab qoladi, deb aytgan bo'lardim" <sup>12</sup> , - degan edi O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov. Oila - jamiyatning bosh bo'g'ini. Unda singdirilgan tarbiya, Vatan, yurt, xalq, mustaqillik, fidoyilik kabi tushunchalar, insoniy fazilatlar haqida berilgan tasavvur farzand qalbida umrbod muhrlanib qoladi. Oila qanchalik mustahkam, tinch, farovon, sog'lom bo'lsagina jamiyat barqaror bo'ladi. "Oilaning or-nomusini ustuvor o'ringa qo'yish tufayli, oilaviy qadriyatlarg'a amal qilish, shu orqali oilaning milliy qiyofasini saqlagan holda butun oilaning sha'ni, obro'sini saqlash uchun mas'uliyat bilan ish tutish – o'zbek xalqi mentalitetiga xos xususiyatlardan hisoblanadi" <sup>13</sup>.

Yangilanish davrida O'zbekistonda shaxs ma'naviyatini rivojlantirish jarayonida adabiyot va san'atning o'rni va ahamiyati oshib bormoqda. Adabiyot va san'at asarlari xalqimizning ma'naviy yuksalishini ta'minlash, ma'naviy olamini boyitish, ularni go'zallik "sirlari"dan bahramand qilishdek ezgu ishlarni amalga oshirishda g'oyat muhim o'rin tutadi. G'oyaviy yuksak saviyali, badiiy jihatdan jozibador

<sup>12</sup> "Bu obod kunlarga yetdik soq'-omon..." // O'zbekistonQahramoni, xalq shoiri Erkin Vohidov bilan suhbat. – Tafakkur: ijtimoiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy jurnal . – 2011 йил 3-сон. – Б.11.

<sup>13</sup> Оила энциклопедияси. – Тошкент: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" давлат илмий нашриёти, 2019. –Б.127.

asarlar odamlar qalbiga tezroq yo‘l topadi, ular odamlarning his-tuyg‘ulariga kuchli ta’sir qilib, turmushda sodir bo‘layotgan voqeahodisalarni mushohada etish, tafakkur madaniyatini shakllantirishga yordam beradi. Shu bois adabiyot va san’at asarlarining shaxsni yuksak ma’naviy-axloqiy ideallar ruhida tarbiyalashdagi ahamiyati kattadir.

Avvalo, adabiyot va san’atning xalqchilligi, barcha uchun tushunarligi, odamlarning ichki – botiniy olamiga emotsiyonal ta’sir ko‘rsata olishi bilan shaxs ma’naviy qiyofasini shakllantirishga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsata olishini ta’kidlash joiz.

Xalqimiz og‘zaki ijodi namunalari, adabiyot va san’at asarlarida halollik, poklik, to‘g‘rilik, birovning haqiga ko‘z olaytirmaslik, xiyonat qilmaslik, adolatli bo‘lish, iymon-e’tiqodli bo‘lish, insonparvarlik, vatanparvalik, mehnatsevarlik, diyonatlilik kabilar azaldan qadriyatlar sifatida ulug‘lab kelingan.

Shaxs ma’naviy qiyofasini takomillashtirishda, uning botiniy olamiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatishda teatr san’atining o‘rni va imkoniyatlari cheksizdir. Taniqli ma’rifatparvar ajdodimiz Mahmudxo‘ja Behbudiy teatrni ibratxona deb atagani bejiz emas. Teatr go‘yo ikki taraflama charxlangan shamshir misol odamlar qalbiga nur va ziyo olib kiradi hamda insondagi nodonlik, jaholat kabi illatlarga qarshi kurashda ko‘mak beradi.

Adabiyot va san’at asarlarining ta’sirchanligini oshirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniening imkoniyatlari beqiyosdir. Aytaylik, O‘zbekiston televideniesining birligina “Otalar so‘zi - aqlning ko‘zi” turkumida efirga uzatilayotgan ko‘rsatuvlari necha o‘n yillardan beri xalqimizni ma’naviy yuksaklikka chorlab, odamgarchilik, mardlik, jasorat, saxiylik, olijanoblik, go‘zallik, axloqiy poklik, ulug‘vorlik, oliyhimmatlik, samimiylilik kabi ma’naviy qadriyatlarimizni targ‘ib qilib kelmoqda. San’atkorlarning hozirga avlodi tomonidan yaratilayotgan mualliflik asarlari, milliy seriallar ham ushbu yo‘nalishda ezgu ishlarning bardavomligidan dalolat beradi. Bunday asarlar, ijod namunalari xalqimiz ma’naviyatini yuksaltiribgina qolmay, shuning barobarida o‘sib kelayotgan yosh avlod vakillari – barkamol shaxs tarbiyasida ham g‘oyat muhim amaliy ahamiyat kasb etayotir.

Yangilanish jarayonlariga hamohang tarzda yurtimizda shaxs ma’naviyatini shakllantirishda ta’lim-tarbiya muassasalarining o‘rni va ahamiyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu – bejiz emas, albatta.

Bugun məktəb - ma'naviy tarbiyaning asosiy o'chog'i bo'lishi kerak. Prezidentimiz aytganidek, "Məktəb faqatgina ta'lim beradigan maskan emas, barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi lozim" <sup>14</sup>. Ularda amalga oshiriladigan o'quv-tarbiyaviy jarayonlar, sinfdan tashqari ishlar hamda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda quyidagilarga e'tibor qaratilishi kerak:

- o'quvchi yoshlarda Vatanga muhabbat, milliy iftixor to'yg'ularini shakllantirish;
- ona tilimizga muhabbat o'yg'otish;
- milliy-ma'naviy qadriyatlarga sadoqat, ma'naviy merosimizga hurmat hissini kuchaytirish;
- ezgulik timsoli bo'lgan ayolni ulug'lash;
- umuminsoniy qadriyatlarning millatlararo totuvlik, bag'rikenglik, dunyoviy ilmlarga intilish - ilg'or ma'naviyatni shakllantirish omili ekanligini tushuntirish;
- o'z tarixini bilish orqali o'zligini anglash mumkin ekanligini o'rgatish.

Bayon etilganlar shaxsning ma'naviy qiyofasiga ta'sir etuvchi omil va vositalar bo'lib, ular birgalikda "ma'naviy ta'sir komponentlari"ni ifodalaydi. Ularni ikki xil talqin qilish mumkin: *birinchidan*, har bir shaxs kamoloti ma'naviy ta'sirning mahsulidir; *ikkinchidan*, muayyan shaxsning o'zi ham boshqalar uchun ma'naviy ta'sir manbaidir. "Shuning uchun ham ma'naviy ta'sir oddiy, doimo ham tezda namoyon bo'ladigan, aniq ko'rinish turuvchi hodisa emas, balki juda murakkab jarayon bo'lib, turli odamlar, xalqlar, ma'naviy muhitlar orasida ham, biror millat yoki qardosh xalqlar doirasida ham o'zaro ta'sir tarzida amal qiladi" <sup>15</sup>.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, "*shaxsning ma'naviy qiyofasi*" degan iboraga shunday ta'rif berish mumkin: *shaxsning ma'naviy qiyofasi - uning axloqiy barkamollik, yuksak insoniylik, ezgulik, sadoqat, go'zallik,adolat kabi ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni o'zining botiniy olamida mujassam etganligi, ularga tayanib yashashi, faoliyat olib borishi, ijtimoiy munosabatlarga kirishishi va kamolot sari intilishini ifodalaydigan pedagogik tushuncha bo'lib, u jamiyatning ma'naviy hayoti yuksalib borishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.*

<sup>14</sup>Shavkat Mirziyoev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. T.: "O'zbekiston", 2021. – B.227.

<sup>15</sup> Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли лугати. – Тошкент: F.Гулом номидагинМИУ, 2009. – Б.322.

Albatta, dunyo xalqlari ma'naviy etuklik sari qanchalik darajada intilsa, ularda insoniylik tamoyillari qanchalik darajada ustuvor ahamiyat kasb etib borsa, shaxsning ma'naviy qiyofasini yuksaltirish jarayonida ham samarali yutuqlarga erishiladi hamda insoniyat jamiyatining umumiy taraqqiyotida ham ijobjiy o'rin tutadi. Shu boisdan, ma'naviy etuklik sari intilish jarayonini umuminsoni harakat sifatida baholash mumkin va lozim.

Shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishning falsafiy-pedagogik tahliliga doir bayon etilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan, "shaxs" - faqat biofiziologik emas, eng avvalo ijtimoiy-ma'naviy mazmunga, o'zining ma'naviy qiyofasiga ega bo'lgan betakror tarixiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan, uning ta'sirida rivojlanib, takomillashib boradigan ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy xususiyatlarni o'zida mujassamlaydi.

Ikkinchidan, shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanishini "adolat" – "ezgulik" – "go'zallik" tamoyili orqali ma'naviy yuksaklik sari qaratilgan evolyusion jarayon deb tushunmoq kerak. Shaxs ma'naviy qiyofasining shakllanib va rivojlanib borishi pirovardida jamiyat ma'naviy hayotining yuksalishiga olib keladi.

Uchinchidan, shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirish millat kelajagi va taqdiri bilan bog'liq bo'lgan g'oyat muhim masaladir. Hozirgi zamonda shaxslar qiyofasidan millat qiyofasi shakllanadi, degan qoida umuminsoniy doirada e'tirof etilgan va inkor etib bo'lmas haqiqatdir.

To'rtinchidan, har qanday jamiyatning kelajagi, uning barqaror taraqqiyoti eng avval shaxsning ma'naviy qiyofasini rivojlantirishga bog'liqdir. Agar jamiyat taraqqiyoti davomida tarkib topgan ma'naviy qadriyatlar shaxsning vujudiga qanchalik darajada singdirgan bo'lsa, uning kamoloti ham shunchalik ravshan va porloq bo'ladi.

Beshinchidan, shaxs ma'naviy qiyofasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi mezonlar jamiyatning taraqqiy etib borishi bilan hamohang tarzda yangilanib va mazmunan boyib boradi.

Oltinchidan, Yangilanish davrida O'zbekistonda shaxs ma'naviyatini rivojlantirishga e'tibor kuchayishi munosabati bilan ushbu jarayonni amalga oshirishga doir omillar va vositalarning ta'sirchanligini oshirish masalalariga ham alohida ahamiyat berila boshlandi va u yangilanish jarayonlarining o'ziga xos omili sifatida xalqimiz hayotida o'z samarasini bermoqda.

## **1.2-§. O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlantirish ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida**

Dunyoda bo‘layotgan voqeа-hodisalarning barchasi qandaydir qonuniyat asosida, zaruriyat yoki tasodif tarzida namoyon bo‘lishi, ularning barchasi o‘ziga xos tarixiy mazmun-mohiyatga ega ekanligi falsafiy-pedagogik fanda o‘z isbotini topgan haqiqatdir. Olamda har doim muayyan shart-sharoitlarda albatta yuz beradigan, sodir bo‘ladigan voqeа yoki hodisalar bor. Har qanday voqeа yoki hodisa davr o‘tishi bilan “pishib etiladi” va zarurat tarzida paydo bo‘ladi, rivojlanib va to‘laqonli ma’no-mazmun kasb etib boradi. Tarixiy shart-sharoitdan kelib chiqib, xalqimiz iborasi bilan aytganda, “bir kun kelib” muqarrar tarzda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar, zamon evrilishlariga xos voqeа-hodisalar jamiyat hayotini qamrab oladi va uning taraqqiyotiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

Albatta, olamdagи zaruriy yoki tasodifiy hodisalar haqida fikr yuritmoqchi emasmiz va bu tadqiqotimizning maqsadiga ham kirmaydi. Zero, olamdagи zaruriy va tasodifiy voqeа-hodisalar haqida falsafiy-pedagogik adabiyotlarning aynи zamonda etarli darajada bisyorligi hammaga ma’lum bo‘lsa kerak<sup>16</sup>.

Barcha sohalarda bo‘lgani kabi jamiyatning ma’naviy hayotida sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalar ham davrga hamohang ravishda “pishib etilishi” mumkinligi hamda vaziyatga bog‘liq tarzda muqarrarlik xususiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi.

Oldingi paragrafda shaxsning ma’naviy qiyofasini shakllantirish va rivojlantirish jamiyatda vujudga kelgan vaziyatdan kelib chiqib paydo bo‘lishi va ushbu jarayon jamiyatning ma’naviy taraqqiyotiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi to‘g‘risida fikr yuritgan edik. Albatta, bu erda shaxs deganda ziyoli shaxsi, xususan, o‘qituvchi shaxsi ham nazarda tutiladi. Demak, o‘qituvchining ma’naviy qiyofasini rivojlantirish ham jamiyat taraqqiyotining muayyan davriga kelib “pishib etilgan”, ya’ni dolzarb ahamiyat kasb etadigan masalaga – ob’ektiv zaruriyatga aylanadi.

Aynan o‘qituvchi – pedagogning ma’naviy qiyofasini shakllantirish bugungi kunda porloq istiqbol sari dadil odimlayotgan mamlakatlar taraqqiyotida, xususan, o‘z oldiga yangi Renessans davrini barpo

---

<sup>16</sup>Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – Toshkent:”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015. Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyatni nashriyoti, 2004. – 149 b.

etishdek ulug‘vor maqsadni qo‘ygan O‘zbekiston taraqqiyotida ham ustuvor masalaga aylandi. Pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish masalasiga mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi jarayonining eng muhim omillaridan biri sifatida qaralmoqda. Mustaqillik yillari mobaynida “O‘zbekiston davlati faoliyatining eng ustuvor strategik yo‘nalishlaridan biri barkamol avlodni tarbiyalash masalasi bo‘lib kelmoqda. Mamlakatimizda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o‘z ijodiy va intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to‘liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etib voyaga etkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli aniq yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish bu boradagi faoliyatning strategik maqsadi hisoblanadi”<sup>17</sup>.

O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlantirish masalasi haqida fikr yuritganda, eng avvalo, muammoga doir “ma’naviyat”, “qiyofa”, “ma’naviy qiyofa” degan asosiy tushunchalarining mazmun-mohiyati haqida to‘xtalib o‘tish darkor, deb o‘ylaymiz.

“Ma’naviyat” – nafaqat pedagogikaning muhim kategoriyasi, balki barcha ijtimoiy-gumanitar yo‘nalishlarda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning asosiy ob’ektiga aylandi. Ma’naviyat masalalariga bag‘ishlangan tadqiqotlarning salmog‘i dunyo miqyosida ham, vatandosh olimlarimiz tadqiqotlari misolida ham yildan yilga tobora ko‘payib va kengayib bormoqda<sup>18</sup>. Bunday tadqiqotlar asnosida ma’naviyat shaxs, xalq, davlat va jamiyatning kuch-qudrati, taraqqiyoti, imkoniyatlari va istiqbollarini belgilab beruvchi ichki ijobiy, ruhiy omil, degan xulosaga kelish mumkin. Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat” – ma’nolar majmui) o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy taraqqiyotga ijobiy ta’sir o‘tkazuvchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvur, tushuncha va g‘oyalar majmui ekanligi barchaga ma’lum.

Ma’naviyat o‘z mohiyati va mazmuniga ko‘ra har jihatdan murakkab va serqirra tushunchadir. Ma’naviyat inson qalbidagi ilohiy bir nur sanaladiki, bu nur hech bir jonzotda mavjud emas. Ma’naviyat shunday bir sehrli tilsimki, uni tugal echishga bashar qudrati etmaydi. Bu sohada tadqiqot olib borgan taniqli vatandosh olimlarimizdan biri Erkin Yusupov “Ma’naviyat – inson axloqi va odobi, bilimlari, iste’dodi, qobiliyati, amaliy malakalari, vijdoni, iyemoni, e’tiqodi, dunyoqarashi,

<sup>17</sup> Milliy q ‘oya va O‘zbekistonning tarag‘g’iyot strategiyasi //Darslik. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2020. – B.164.

<sup>18</sup> Frolov I.T. Izbrannye trudy v 3-x tomakh. – T.3. O cheloveke i gumanizme. - M.: Nauka, 2003. – 789 s.;

mafkuraviy qarashlarning bir-biri bilan uzviy bog‘langan, jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta’sir etadigan mushtarak tizimidir”<sup>19</sup>, – deb ta’riflagan edi.

“Vatan tuyg‘usi” kitobida “Ma’naviyat – jamiyatning, millatning va ayrim bir kishining ichki hayoti, ruhiy kechinmalari, aqliy qobiliyati, idrokini mujassamlashtiruvchi tushuncha”<sup>20</sup> – deb ta’riflangan. Taniqli faylasuf va pedagog olim Murtazo Qarshiboev ma’naviyatni “ilohiy nur, insoniy mohiyat ramzi”<sup>21</sup> sifatida ta’riflasa, professor Ismoil Saifnazarov ma’naviyatning ichki, botiniy mazmuniga ko‘proq e’tibor qaratgan<sup>22</sup>.

Shu o‘rinda A.Muxtorovning “Ma’naviyat” tushunchasiga bildirgan fikr-mulohazalariga e’tibor qaratsak. Uningcha, “Ma’naviyat” kishining ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, ishonch va e’tiqodi, imkoniyati, iste’dodi, faoliyati va qobiliyatini ifodalovchi keng qirrali ijtimoiy hodisadir”<sup>23</sup>. G.J.Tulenovaning esa “Ma’naviyat – har qanday jamiyatning muhim unsuridir. Yuksak ma’naviyat, mafkurasiz hech qanday jamiyat ham, davlat ham taraqqiy eta olmaydi. Ma’naviyati yuksak darajada rivojlangan millat, xalqgina keljakka tomon izchillik bilan qadam bosadi”<sup>24</sup>, degan fikri ham alohida e’tiborga molikdir.

Ushbu tahlillardan ma’lum bo‘ladiki, bugungi kunda ma’naviyat, ma’naviy hayot kabi muammolar doirasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar ayni vaqtning o‘zida eng muhim pedagogik muammolar sifatida olib qaralmoqda.

O‘zbek tili izohli lug‘atida “qiyofa” degan so‘z arabchadan tarjima qilinganda tashqi ko‘rinish, yuz,aft, qaddi-qomat, o‘zini tutish degan ma’nolarni anglatadi, deb ko‘rsatilgan. Bundan tashqari, u ko‘chma ma’noda - kishining ma’naviy, ruhiy va axloqiy xususiyatlari, ongi, dunyoqarashi, bilim-saviyasi va shu kabilar majmuini ifodalaydi, deb ta’kidlanadi<sup>25</sup>. Kasb-korga va kishilarga nisbatan esa muayyan shaxsning ma’naviy qiyofasi – ular qilayotgan ishlari va o‘zlarining qiyofasini belgilab beradi. Bundan ma’lum bo‘ladiki, o‘qituvchining ma’naviy

<sup>19</sup>Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – B.34.

<sup>20</sup>Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. – T.: O‘zbekiston, 1997.

<sup>21</sup>Qarshiboev M. Taloto‘pdan uyg‘unlik sari. – T.: Ma’naviyat, 1997. –B.7-12.

<sup>22</sup>Saifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. –T.: SHark, 2001. –B. 14.

<sup>23</sup>Muxtorov A. Yuksak ma’naviyatlari sog‘lom avlodni tarbiyalash - maksadimiz // Mustaqil O‘zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari (Ma’ruzalarning qisqacha matnlari). –T., 2000. –To‘plam. O‘zRFA –B. 105-108.

<sup>24</sup>Tulenova G.J. Yoshlar ma’naviyati va kamolotni oshirish taraqqiyot zaruriyati (Mustaqil O‘zbekiston falsafafanlarining dolzarb muammolari) // (Ma’ruzalarning qisqacha matnlari). –T., 2000. –To‘plam. O‘zRFA. – B.103.

<sup>25</sup>Qarang:Qiyofa-vikiluq’at uz // wiktioraru.orq.

qiyofasi ham uning faoliyatida, xatta-harakatida, yurish-turishida, o‘y-xayollarida va amaliy faoliyatida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mazmundagi adabiyotlarda “qiyofa” degan so‘z kamdan-kam hollarda qo‘llaniladi. Ayrim hollarda ushbu so‘z “obraz”, “timsol” kabi ko‘rinishlarda ham talqin qilinmoqda. Manbalar va lug‘aviy nashrlarga murojaat qilinganda ushbu tushunchalarning ma’no jihatidan o‘zaro yaqinligini ko‘rish mumkin. Masalan, “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”da “qiyofa” so‘zi “oblik”, “ma’naviy qiyofa” esa “duxovnyiy oblik” deb keltirilgan<sup>26</sup>. O‘z navbatida, “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”da ham aynan shunday<sup>27</sup>.

Kundalik muloqotda “qiyofa” deganda ko‘pincha insonning faqat tashqi ko‘rinishi haqida gap boradi. Lekin “qiyofa” so‘zining ko‘chma ma’nosini borligini har kim ham tasavvur qilavermaydi. Lug‘atlarda “obraz” degan so‘z “timsol” deb tarjima qilinadi va u “qiyofa” degan tushunchadan tamomila farq qilinadi. “Obraz”, “timsol” degan so‘zlar, aytaylik, qahramonning xayoliy in’ikosini ifodalasa, “qiyofa” esa o‘sha qahramonning amalda namoyon bo‘lishi, real hayotdagi ifodasi sifatida gavdalanadi. Obraz (timsol) xayoliy ifoda bo‘lsa, qiyofa – jonli namunadir. Shunday ekan, “o‘qituvchining ma’naviy timsoli (obrazi)” degandan ko‘ra, “o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi” degan ibora mantiqan to‘g‘ridir va tadqiqot ishi davomida ushbu ibora qo‘llaniladi.

Yuqorida keltirilgan ta’riflarning hammasida ham ma’naviyat va qiyofaning ko‘pgina qirralari o‘z ifodasini topgan. Ularda mualliflar o‘zlarining nuqtai-nazarlarini bildirishgan bo‘lsada, bu ta’riflar yangilanish va o‘zgarishlar jarayonlari nuqtai nazaridan yanada sayqalga muxtojdir. YUqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ularni to‘ldirgan holda ma’naviy qiyofaga quyidagicha ta’rif berish mumkin: *o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi deganda yuksak ma’rifatli, insoniy fazilatlari bilan barchaga ibrat bo‘ladigan, botiniy va zohiriyl go‘zallikni o‘zida mujassamlashtirgan hamda yuqori kasbiy mahorat va ilg‘or pedagogik tajribaga ega bo‘lgan pedagog qiyofasini tushunish mumkin.*

Bundan tashqari o‘qituvchining ma’naviy qiyofasining muhim tarkibiy qismlariga sifatida quyidagi jihatlarni e’tirof etish maqsadga muvofiqliqdir:

- yuksak ma’rifat (o‘z sohasi va turdosh sohalar bo‘yicha chuqr bilimlarga egalik);

<sup>26</sup> Qarang:Uzbeksko-russkiy slovar. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1988. – B.640). Узбекско-русский словарь. - Тошкент: Қомуслар Баш таҳририяти, 1988. – Б.640).

<sup>27</sup> Qarang: Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1983. – B.686.

- yuksak ma'naviyat (namunali xulq-atvor, botiniy (ichki) va zohiriy (tashqi) go'zallikka egalik);

- barqaror ruhiyat (ruhiy jihatdan doimo barqarorlik va faoliyatda vazminlik);

- yuksak kasbiy (pedagogik) mahorat, jumladan, pedagogik odob, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyati, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat, kompetentlilik (qobiliyatilik) va kommunikativlik (muloqot qila olish va axborot almashish), kollaborativlik (hamkorlik va jamoa bo'lib ishlash), kreativlik (ijodkorlik, yaratuvchilik), kritikal fikrlash (tanqidiy va mantiqiy fikrlash - 4K-ko'nikmalar);

- liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini puxta egallaganlik (faoliyatda etakchilik, ergashtiruvchanlik, ibrat, namuna, o'rnak ko'rsata olish);

- huquqiy mezonlarni bilish va amaliyotda qo'llay olish (o'z haq-huquqlarini bilish, o'z sha'ni va qadr-qimmatini anglash, o'z majburiyat va burchlarini bajarish);

- tarixiy tafakkur (ajdodlar merosiga hurmat, ulardan g'ururlanish va foydalanish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik);

- mafkuraviy tayyorgarlik (ezgu fikrlar, bunyodkor g'oyalar, ijobiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash)ning rivojlanganlik darajalari namoyon bo'lishi kerak (1-jadval).

Buning uchun pedagoglarda yangicha dunyoqarash, zamonaviy tajriba ko'nikmalar, yuksak ma'naviyat, vatanparvarlik, fidoyilik fazilatlarini, barqaror ruhiy va axloqiy xususiyatlar, ongi-shurini, tafakkurini jamiyatdagi evrilihlarga hamohang tarzda boyitib va rivojlantirib borish muhim hisoblanadi. Ushbu jarayonda o'qituvchidan o'z-o'zini uzluksiz rivojlantirib borish, irodalik, ma'suliyat, o'z kasbiga fidoiyilik, kasbiy ehtiyojlarni amalga oshirish va kasbiy mahoratni rivojlantirib borish talab etiladi.

1-jadval.

O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini belgilovchi asosiy komponentlar

T.r	Komponentlar	Mazmuni
1	Yuksak ma’rifat	O‘z sohasi va turdosh sohalar bo‘yicha chuqur bilimlarga egalik
2	Yuksak ma’naviyat	YUksak xulq-atvor, botiniy(ichki) va zohiriy (tashqi) go‘zallikka egalik
3	Barqaror ruhiyat (psixologik)	Ruhiy jihatdan doimo barqarorlik va faoliyatda vazminlik
4	Yuksak kasbiy(pedagogik) mahorat	1. Pedagogik odob, pedagogik qobiliyat, pedagogik muloqot madaniyati, pedagogik relaksatsiya, kommunikativ ta’sir ko‘rsatish qobiliyati, pedagogik takt, pedagogik texnika, nutq texnikasi, pedagogik ijodkorlik, pedagogik tajriba, pedagogik madaniyat, kompetentlilik (qobiliyatatlilik); 2. Kommunikativlik (muloqot qila olish va axborot almashish), kollaborativlik (hamkorlik va jamoa bo‘lib ishlash), kreativlik (ijodkorlik, yaratuvchilik), kritikal fikrlash (tanqidiy va mantiqiy fikrlash - (4K-24-asr ko‘nikmalari) kabi jihatlarni egallash
5	Liderlik va boshqaruv ko‘nikmalarini puxta egallaganlik	Faoliyatda etakchilik, ergashtiruvchanlik, ibrat, namuna, o‘rnak ko‘rsata olish
6	Huquqiy mezonlarni bilish va amaliyotdaqo’llash	O‘z haq-huquqlarini bilish,o‘z sha’ni va qadr-qimmatini anglash, o‘z majburiyat va burchlarini bajarish
7	Tarixiy tafakkurni rivojlantirish	Ajdodlar merosiga hurmat, ulardan g‘ururlanish va foydalanish, milliy qadriyatlarimizga sodiqlik
8	Mafkuraviy tayyorgarlik	Ezgu fikrlar, bunyodkor g‘oyalar, ijodiy tafakkur, ilmiy dunyoqarash

Ba’zi davriy va internet nashrlarida “o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi” degan iborani “pedagog imiji” deb talqin qilish holatlari ko‘zga tashlanmoqda. Aslida buning ajablanarli joyi yo‘q, chunki “imij” degan atama milliy leksikonimizga kirib kelganiga unchalik ko‘p bo‘lmagan, qolaversa muayyan bir shaxs (aytaylik, rahbar, ishbilarmon, san’atkor va

h.k.) imiji, ya’ni timsoli yoki obrazini yaratish psixologlar, siyosatshunoslar, sotsiologlar, marketologlar, jamoatchilik bilan aloqa qilish mutaxassislarining odatiy mashg‘ulotiga aylanib bormoqda.

O‘zi “imij” degan atama XX asrning oltmishinchi yillarida amerikalik Bolduing degan mutaxassis tomonidan muomalaga kiritilgan va hayotdagi zarurati asoslab berilgan. 1990 yillardan boshlab bu masalada ilmiy tadqiqotchilik ishlari boshlangan va hozirgi davrda izchillik kasb etgan. “Ko‘pgina olimlar ijtimoiy hayotning turli sohalarida imijning o‘rnini va ahamiyatini aniqlash, siyosatchi, biznesmen va davlat amaldori imijini yaratish tamoyillari, mexanizmlari va texnologiyalarini o‘rganish bilan shug‘ullana boshladilar. Imij fani (“imijelogiya” nazarda tutilmoxda – O‘.O‘.) o‘z rivojining hozirgi bosqichida keng amaliy va nazariy tajriba to‘plandi”<sup>28</sup>.

“Jahon falsafasi qomusi”da *imij* (lot. Imaqo, ing. Imaqe, - timsol, obraz, ko‘rinish) – biron bir narsa, hodisa yoki shaxsning odamlarga hissiy-ruhiy ta’sir ko‘rsatishni ko‘zlab shakllantiriladigan qiyofasi; uni ommalashtirish va reklama qilish, boshqalarga tanitish va targ‘ib qilish vositalaridan biri”<sup>29</sup>, deb ta’riflangan.

Pedagogik ensiklopediyada “imij” tushunchasi eng muhim gnoseologik muammo bo‘lib, boshqa barcha nazariy-amaliy va texnologik muammolar ko‘proq mazkur muammoning echimiga bog‘liq”<sup>30</sup>, deb ko‘rsatilgan. Demak, imijeologiya – yangi, zamonaviy fan bo‘libgina qolmay, balki o‘ziga xos san’at hamdir. CHunki biror shaxs – u rahbarmi, tadbirkormi, lidermi, ijodkormi – bundan qat’iy nazar, uning eng yaxshi qirralarini ochish, shuhrat qozonish, nufuzi, obro‘-e’tibori, mavqeini ko‘tarish, bir so‘z bilan aytganda, uni “qaytadan kashf qilish” haqiqatan ham tom ma’noda san’at demakdir.

Shuning uchun har bir shaxs hayotda o‘z imijini shakllantirishga doimo intilishi, harakat qilishi kerak, shundagina uning ma’naviy qiyofasi boy va to‘laqonli bo‘ladi, xalq o‘rtasida, jamiyatda o‘zining obro‘sni, mavqeini yuqori bo‘ladi.

Bizning asrimizga kelib davlat va jamoat arboblari, taniqli liderlar, siyosatchilar, sportchilar, aktyorlar, ijodkorlar, biznesmenlar va boshqa soha vakillari, shuningdek, tashkilotlarning imijini shakllantirish borasida ish olib borish tobora keng quloch yoyib bormoqda. Shu

<sup>28</sup>Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 466-bet.

<sup>29</sup> O’sha manba, 466-ber.

<sup>30</sup> Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – Toshkent:”O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.

maqsadda maxsus fan – *imijeologiya* vujudga kelishi barobarida maxsus kasb – *imijmeykerlik* ham dunyo bo‘ylab keng tarqalib bormoqda. Imijmeykerlik kasbi o‘tgan asrning ikkinchi yarim yilligida G‘arb mamlakatlari, xususan, Qo‘shma Shtatlarda paydo bo‘la boshladi. Yuqorida ta’kidlangan soha vakillarining obrazini yaratishga o‘ektiv ehtiyoj o‘sha paytlarda yuzaga keldi. Imijmeyker aslida barobarida undan manfaatdor bo‘lgan “buyurtmachi”ning ko‘nglini topish, buyurtmachilar bilan yaxshi, barqaror munosabatlar o‘rnatishni maqsad qilgan mutaxassisdir. Bu mutaxassislar turli soha vakillaridan iborat bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda har xil yordamchilar, matbuot xodimlari, blogerlar, ta’lim sohasi xodimlari ham ushbu faoliyat bilan shug‘ullanishlarini ko‘rish mumkin.

Bugungi davr – XXI asrga kelib bashariyat miqyosida ilmu urfonning, ta’limning ahamiyati, “*hayot davomida o‘qish*” tamoyilining inson ehtiyojlari mazmunidagi salmog‘i va o‘rni orta boshladi. Ushbu omil ta’lim-tarbiya sub’ekti sifatida o‘qituvchining imijini yaratish masalasini ham ko‘ndalang qilib qo‘ydi. Chunki jamiyat taraqqiyotining hal qiluvchi kuchi – ta’lim ekanligi haqidagi g‘oya dunyo miqyosida dolzarb ekanligi ayon bo‘la bordi.

O‘qituvchi – jamiyatdagi eng obro‘-e’tiborli kishi bo‘lishi kerak, degan tamoyil avvalo muallimning jamiyatdagi o‘rni va mavqeini asoslab berish, bir so‘z bilan aytganda, uning imijini yaratish zaruratini paydo qildi. O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini shakllantirish dunyo mamlakatlari bo‘ylab muqarrarlik xususiyati kasb eta bordi. Xususan, Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida o‘qituvchining obro‘-e’tibori va nufuzini oshirish – davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Ma’lumki, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev ham ushbu haqiqatni ko‘p marta ta’kidlab aytdi.

Muallimning obro‘-e’tibori, jamiyatdagi mavqeini oshirishning o‘zi bo‘lmaydi, albatta. Buning uchun, eng avvalo, dunyoning rivojlangan mamlakatlarida bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham imijmeykerlik faoliyatini keng yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. *Imijmeykerlik deganda bir maqsad yo‘lida, ya’ni muayyan shaxsning (bizning misolimizda – o‘qituvchining) milliy-ma’naviy qadriyatlarimizga tayangan holda jamiyatdagi obro‘sini oshirish, nufuzini ko‘tarish, unga nisbatan hurmat muhitini yaratish yo‘lida olimlar, pedagoglar, psixologlar va turli soha mutaxassislarining hamkorlik faoliyatini tushunamiz.*

Xalqimizda “yolg‘iz otning changi chiqmas” degan dono naql bor. Bior bir soha egasi (xodimi) o‘zining obro‘-e’tiborini ko‘tarishi, davr talablariga mos mutaxassis bo‘lib etishishi qiyin, albatta. Buning uchun jamiyat miqyosida hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish, soha mutaxassislarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan mustahkam va barqaror tizim yaratilishi zarur. Muallimlik kasbi-korini ulug‘lash va bunga keng yo‘l hamda imkoniyatlar ohib berilishi lozim.

Jamiyatda o‘qituvchining ma’naviy qiyofasini oshirish o‘z-o‘zidan bo‘lmaydi. Buning uchun o‘qituvchilik kasbiga va muallimga nisbatan jozibadorlik muhitini yaratish zarur. Jozibadorlik muhit uchta omilni o‘z ichiga oladi: ibrat, tarovat, maftunkorlik. O‘qituvchi shaxsiy turmushi va mehnat faoliyatida qanchalik yutuq va muvaffaqiyatlarga erishsa, ular, albatta, o‘zining boshqalarga ibrati, tashqi tarovati hamda maftunkorligi, ya’ni boshqalarga qanchalik darajada yoqishi kabi omillarga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining ichki, botiniy olami imij orqali boshqalarning ko‘z o‘ngida yaqqol namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi imiji qator funksiyalarni bajaradi. Ularni quyidagilarga ajratish mumkin: 1). Professional funksiya – o‘zining ta’lim-tarbiya faoliyatida yuqori sifatni ta’minlash; 2). Ijtimoiy funksiya – o‘quvchilarning ijodiy faolligini shakllantirish, o‘zining o‘qituvchilik kasbi maqomi va obro‘sni hamda ijimoiy ahamiyatini oshirish; 3). Ma’naviy qadriyatlar sifatidagi funksiya – o‘quvchi shaxsini shakllantirish: o‘quvchi bilan do’stona hamkorlik, unga hurmat, to‘g‘rilik,adolat, mehribonlik ko‘rsatish; 4). Vizual funksiya, ya’ni ijobiy tashqi taassurot, tashqi ko‘rinish, tashqi qiyofa madaniyati.

O‘qituvchi imijining funksiyalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq va bir-birisiz mavjud bo‘la olmaydi, ular bir-birni doimo to‘ldirib va o‘zaro boyitib keladi.

O‘qituvchining imiji strukturasida uch xil - tashqi, protsessual va ichki komponentlarni ajratib ko‘rsatish mumkin<sup>31</sup>. *Tashqi komponentlar* o‘qituvchining zohiriyl elementlari - ovoz tembri, qo‘l harakalari (jestlari), libosi, manerasi, yurishi kabilarni bildiradi va ular mashg‘ulotlarda ishchanlik muhitini yaratish, o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro bir-birini tushunishi, pedagogik muloqotda ahamiyat kasb etadi. *Protsessual komponent* o‘qituvchining emotsional boyligi, verbal va noverbal muloqot usullarini muvaffaqiyat bilan qo‘llay olishi, mashg‘ulotni ekspressiv tarzda jonli olib borishini bildiradi. *Ichki*

<sup>31</sup>Қаранг: Митина Л.М. Личностно-профессиональное развитие учителя: стратегии, ресурсы, риски. – 2018 // kartaslov.ru > Лариса Митина.

*komponent* esa o‘qituvchining botiniy dunyosi, ma’naviy va intellektual olami, shaxsiy qadriyatlarini ifodalaydi.

Davr o‘tishi bilan o‘qituvchiga qo‘yilgan ijtimoiy talab va mas’uliyat ham oshib borishi tabiiy, albatta. Xususan, XXI asr o‘qituvchisining professional mahorati va ma’naviy saviyasi, birinchi galda, o‘quvchilarga ta’lim berish, ularning aqliy qobiliyatini rivojlantirishgina emas, balki yangi avlodni tarbiyalashdek o‘ta mas’uliyatli vazifani qay darajada amalga oshirishi bilan ham belgilanadi.

Ana shu ma’noda o‘qituvchi ijtimoiy axloqning o‘ziga xos “tashuvchisi” sifatida gavdalanadi: u ijtimoiy axloq qoidalarini yaratishda yakka tartibda, bir o‘zi emas, balki o‘quvchilar, ota-onalar jamoatchiligi hamda pedagogik jamoa bilan bирgalikda, hamkorlikda ishtirok etadi. Xudda shunday ma’noda o‘qituvchi yuksak ma’naviy-axloqiy timsol sifatida namoyon bo‘ladi. Oqni qoradan, ezgulikni yovuzlikdan, haqiqatni yolg‘ondan, go‘zallikni xunuklikdan farq qila olishni, chin insoniylik sirlarini o‘quvchilar qalbiga faqat eng pokiza, ibrat namunasi bo‘lgan o‘qituvchi singdira oladi. Aslida pedagogik etikaning asl maqsadi, eng muhim talabi ham shundan iborat.

Yigirma birinchi asri o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasi haqida gap ketganda unga qo‘yiladigan quyidagi talablar nazarda tutiladi: pedagogik burch, pedagogikadolat, pedagogik sha’n, pedagogik nufuz. Bularning hammasi pedagogik etikaning muhim kategoriyalarini tashkil etadi, o‘zaro bir-birini to‘ldiradi va boyitadi.

*Pedagogik burch* deganda o‘qituvchining professional vazifalarining bajarilishi, umuman, ma’naviy qiyofasiga qo‘yiladigan axloqiy talablarning majmuasi tushuniladi, ya’ni o‘z faoliyatiga ijodiy yondashish zarurligi, o‘ziga nisbatan talabchanlik, o‘zining kasbiy bilim va ko‘nikmalarini doimo boyitib borish, mahoratini oshirish, o‘quvchilar va ularning ota-onalariga hurmat va talabchanlik bilan munosabatda bo‘lish, ta’lim muassasasining ijtimoiy-pedagogik hayotida faol ishtirok etish kabilarni tushunish mumkin.

*Pedagogikadolat* deganda o‘qituvchining o‘z faoliyatida xolislik (ob’ektivlik) tamoyillariga amal qilishi: o‘quvchilar, ularning ota-onalari bilan munosabatda samimiylilik, insoniylik, mehribonlik kabi fazilatlarini namoyon qilishidir. Pedagogikadolat - o‘quvchilar, ayniqsa, ular ota-onalarining o‘qituvchiga nisbatan ishonchini oqlash demakdir.

*Pedagogik sha’n* – o‘qituvchi o‘z professional vazifasini bajarish jarayonida namoyon qiladigan hatti-harakatlarining axloqiylik darajasi

va uning jamoatchilik tomonidan e'tirof etilishidir. Bordi-yu, o'qituvchi o'zining xulq-atvori va odamlar bilan muloqoti jarayonida jamiyatning pedagog idealiga qo'yiladigan talablarini buzsa, uning sha'ni va qadr-qimmatiga darz ketgan bo'ladi.

*Pedagogik nufuz (avtoritet)* o'qituvchining maktab jamoasi, o'quvchilar va ularning ota-onalari, jamoatchilik oldidagi obro'-e'tibori, nfuzini bildiradi. Pedagogik nufuz intizomni tashkil qilish, o'quvchilar hatti-harakati, xulq-atvorini boshqarish, ularning e'tiqodiga ta'sir ko'rsatishda o'qituvchiga yordam beradiga vosita bo'lib, tarbiyalanuvchilar shaxsiga qo'yiladigan talablar va ishonchning birligi tamoyiliga asoslanadi.

Zamonaviy pedagogika ilmida o'qituvchining ma'naviy qiyofasini rivojlantirish faqatgina pedagogik etikaning emas, balki butun bir pedagogika fani oldida turgan dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Pedagogik odob faqatgina pedagogik axloqning prinsiplarini o'rganish bilan cheklanib qolmaydi, balki ma'naviy qadriyatlarning mohiyati, ularni ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuniga singdirishni ham nazarda tutadi.

Xuddi shu ma'noda ma'naviy qadriyatlarni ta'limning mazmun-mohiyatiga singdirish masalasi XXI asr pedagogika ilmi taraqqiyotida ustuvor masala sifatida paydo bo'ldi. Ma'naviy qadriyatlarga hurmat, ularni o'quvchi yoshlarning vujudiga, qalbiga chuqur singdirish o'qituvchi ma'naviyatining tarkibiy qismiga aylansagina ushbu maqsadga erishish mumkin.

Ma'naviy etuklik, pedagoglik kasbiga sadoqat, milliy iftixor, vatanparvarlik, ilmgan chanqoqlik, bilim, xushmuomalalik, kommunikativlik bugungi o'qituvchi ma'naviy qiyofasini belgilaydigan fazilatlar bo'lishi zarur. "O'quvchilarni o'ziga jalb qila olish, ishtyoqini o'yg'ota olish, milliy zamonaviylik g'oyasini singdirib, milliy-tarbiyaviy vazifalarga ruhlantira olish; o'zini "mukammal, zamonaviy o'zbek ziyyolisi" siyosiga ongli ravishda tayyorlash va takomillashtira borish; o'zbek tilida sof, tiniq, ifodali, ta'sirli, ohangdor so'zlash; notiqlik va aktyorlik mahorati; yuz-qiyofa, ko'z, qo'l, gavda harakatlari orqali o'z nutqining ta'sirchanligini oshira olish; his-tuyg'ularni jilovlay olish; o'quvchilarga bevosita va parallel ta'sir ko'rsata olish va h.k."<sup>32</sup> lar pedagogik mahoratning muhim belgilaridir.

---

<sup>32</sup>Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: "Ma'naviyat", 2007. – B.198.

XXI asr o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasini shakllantirish va rivojlantirish davrimizning eng dolzarb ijtimoiy-pedagogik muammosi sifatida muqarrarlik xususiyatiga ega bo‘lgan va bir qator ob’ektiv omillar bilan bog‘liq bo‘lgan muammodir. Birinchidan, insoniyatning global muammolari tobora keskinlashib borishi, dunyoning turli nuqtalarida urush o‘choqlarining paydo bo‘lishi, davlatlararo munosabatlarda beqarorlikning ortib borishi va boshqa umumbashariy muammolar kuchayib borayotgan sharoitda ma’naviyat va ta’lim-tarbiya masalalarining “xaloskorlik” rolining namoyon bo‘lishi; ikkinchidan, ma’naviyat va ta’lim masalalarining taraqqiyotda hal qiluvchi kuchga aylanganligi, xalqlar va davlatlar o‘rtasida hamjihatlik va o‘zaro hamkorlik munosabatlari aynan shu sohada rivoj topayotganligi mazkur soha mutaxassislari, xususan, o‘qituvchilik kasbining nufuzi ortishiga, pedagog imijini qaror toptirishga o‘ktiv ehtiyojni paydo qildi; uchinchidan, barkamol shaxsni kamol toptirish g‘oyasi ko‘plab davlatlar, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlarning taraqqiyotidagi amaliy ahamiyati ortdi – ayna shu g‘oya ta’lim-tarbiya sohasi va uning ishtirokchilari, o‘qituvchilarga bo‘lgan ijtimoiy munosabatni qayta ko‘rib chiqish, shu kasb sohiblarining jamiyatdagi mavqeini oshirishga asos bo‘ldi.

Yigirma birinchi asr o‘qituvchisining ma’naviy qiyofasini ifodalaydigan pedagogik burch, pedagogikadolat, pedagogik sha’n, pedagogik nufuz kabi tushunchalar pedagogik etikaning muhim kategoriyalarini ifodalash barobarida o‘qituvchi shaxsining yuksalishi, uning ma’naviy kamol topishiga ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omillardir. Shu nuqtai nazardan, milliy va ma’naviy “qadriyatlarimizni bilish, targ‘ib qilish – faqat milliy o‘zlikni anglash sharti bo‘lib qolmasdan, avvalo barkamol avlod tarbiyasining muhim omilidir. Shu ma’noda milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz targ‘iboti bugun tarbiyaviy ishlarimizning bosh yo‘nalishi bo‘lishi zarur”<sup>33</sup>.

Hech bir jamiyat rivojini ziyorilar qatlami, xususan, o‘qituvchilarning samarali faoliyatjisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini rivojlantirish masalasi ayni vaqtida davrning muhim va dolzarb talabi ekanligidan kelib chiqib, yangilanayotgan mamlakatimizda ham ushbu masalaga davlat siyosati nuqtai nazaridan yondashilayotgani ayni muddaodir. Zero, insoniyat

<sup>33</sup>Haydarov K. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarining tiklanishi va uning uzuksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa fanl.dokt. dissert. – Samarqand, 2022. – B.22.

hayotida ta’lim-tarbiya masalalarini davlat siyosati darajasiga ko‘tarmay turib, jamiyatni rivojlantirib bo‘lmasligi hozirgi davrdagi eng rivojlangan mamlakatlar tarixiy tajribasida isbotini topgan.

### **1.3-§. O‘zbekistonda o‘qituvchi ma’naviy qiyofasining rivojlantirishning konseptual asoslari.**

O‘zbekistonda mustaqillik yillarida jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilgan islohotlar singari ma’naviyat, xalqning ma’naviy qiyofasini yangilash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganligi ham tarixiy haqiqatdir. Xalqimiz istiqlolga erishgach, ijtimoiy borliq bilan birgalikda ijtimoiy ongni o‘zgartirish, odamlarning tushuncha va tafakkurini yangilash, ta’bir joiz bo‘lsa, “islohotlarni ma’naviy to‘lqin bilan kuchaytirish” ehtiyoji paydo bo‘ldi va ushbu yo‘nalishda ko‘plab o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta’biri bilan aytganda, “mustaqillik, bugungi erkin hayot, bugungi beqiyos imkoniyat har qaysi millat, har qaysi avlod tarixida faqat bir marta beriladigan ulug‘ va noyob ne’matdir”<sup>34</sup>.

Xalqimiz ma’naviy hayotini, shaxsning ma’naviy qiyofasini o‘zgartirishning bosh yo‘li sifatida “Kuch – bilim va ma’rifatda” degan shiorning o‘rtaga tashlanishi, “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturining qabul qilinishi, o‘sha davrning talablaridan kelib chiqib, ma’naviyat bilan ta’limning o‘zaro aloqadorligi va bir-biriga o‘zaro ta’siri tamoyillarini kuchaytirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy asosning yaratilishi va hayotga joriy etilishi O‘zbekiston taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etdi. Mamlakatda ta’lim-tarbiya va u bilan bog‘liq sohalarni rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi.

Milliy istiqlol davrida uzlusiz ta’lim tizimini yangilashning dastlabki asoslari qaror toptirishda 2004 yilda qabul qilingan Maktab ta’limini rivojlantirish umummiliy dasturida belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi alohida o‘rin tutdi – mazkur hujjat o‘qituvchilarining ma’naviy-intellektual salohiyatini oshirishga qaratilgan muhim strategik hujjat sifatida xizmat qildi.

Ma’lumki, milliy iqtisolning dastlabki yillarida O‘zbekistondagi maktablarning 60 foizdan ziyodi avariya holatida bo‘lgan. Qabul qilingan dasturiy hujjatlar asosida maktablarning yangi, zamonaviy

<sup>34</sup>Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. - T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B.298.

binolari qurildi, anchasi mukammal ta'mirlandi, o'sha davr uchun yangi va shinam bo'lgan jihozlar, multimedya vositalari, ko'rgazma materiallar bilan boyitildi, kompyuter sinfxonalar, lingofon kabinetlari tashkil etildi.

Davr talablariga mos ta'lim standartlarini yaratish, ta'lim jarayoniga tatbiq qilish, yangi darsliklar va o'quv qo'llanmalarini yaratish orqali maktab ta'limi mazmunini qaytadan takomillashtirish orqali 2009-2014 yillarda 136 ta yangi musiqa va san'at maktablari barpo etildi, 142 tasi kapital ta'mirlandi va qayta jihozlandi. Bunyodkorlik ishlari uchun 634 milliard 4 million so'm mablag' sarflandi. Mustaqillikning dastlab davrlaridanoq o'quvchi yoshlarning ma'naviy-estetik tarbiyasini kuchaytirish, musiqa va san'atga oshifta qilish, dunyoqarashini boyitishga alohida etibor qaratildi.

Amalga oshirilgan bunday tashkiliy tadbirlar tufayli mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish barobarida jamiyatimizning ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy salohiyatini yuksaltirish, ziyoli kadrlar va maktab ta'limi xodimlari safini kengaytirish yo'nalishida muayyan shart-sharoitlar yaratildi.

Shunga qaramasdan, eng asosiy muammo – maktab ta'limi sohasiga o'qitishning yangi metodikalarini joriy qilish, ta'limning sifati va mazmunini ko'tarish, mashg'ulotlarni zamonaviy texnologiyalar asosida olib borish kabi vazifalar bilan birgalikda pedagoglik maqomini ko'tarish, o'qituvchining ijtimoiy mavqeい, obro'-e'tiborini oshirish, unga nisbatan jamiyatda hurmat muhitini yaratish kabi vazifalarni adekvat tarzda olib borishdek o'ta dolzarb masala amalda echimini topmadи.

Sobiq ittifoq davrida maktabga, ta'limga, o'qituvchiga nisbatan shakllangan bepisand munosabat deyarli o'zgarmasdan qoldi - sohada zug'um va zo'ravonlik ustuvor bo'ldi, "ma'rifat timsoli" bo'lmish o'qituvchi o'zining funksional vazifasi qolib, boshqa "muhim ishlarga" jalb etildi – majburiy mehnat asiri bo'ldi. Respublika ta'lim tizimida sifat va samaradorlikning pasayib ketishiga birgina majburiy mehnat emas, boshqa sabablar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, albatta. Masalan, maktab ta'limida mazmunga emas, ko'p hollarda shaklga asosiy e'tibor qaratildi – tozalik, obodonchilik, oqlash, bo'yash, supurish kabi yumushlar birinchi o'ringa qo'yildi. To'g'ri, bular ham kerak, lekin avvalo ta'limning mazmuni, o'quvchilarning bilim va qiziqishlari ustuvor bo'lishi zarur – afsuski, bu masala e'tibordan chetda qoldi.

Oqibatda muallim o'zining sevimli kasbi – o'qituvchilikni va qadrdon dargohi – maktabni tark etdi, ro'zg'orni tabratish ilinjida boshqa

yumush axtarib ketdi. Erkak muallimlarning keskin kamayib ketganligi bois ta’limning sifati ham pasayib ketdi, muqaddas kasbning nufuziga putur etdi. Buning ustiga, maktab ta’limini boshqaruvchi organlarining faoliyatida ham barqarorlik buzildi – ular “yuqoridan” berilgan topshiriqlarni ko‘r-ko‘rona bajarishga o‘rganib qolishdi.

Bularning oqibati o‘laroq, fidoyi o‘qituvchilarning kamayib ketgani, ba’zi o‘qituvchilar bilim va tajribasini oshirish o‘rniga muallimlik kasbini oddiy ermakka aylantirib qo‘yanlari, o‘z ustida muntazam ishlamaslik, boz ustiga, xalq ta’limi bo‘limlari va maktab rahbarlari tomonidan boshqaruv madaniyatining pastligi ham ta’lim mazmuni pasayib ketishiga sabab bo‘ldi.

Tahlillarimiz shuni ko‘rsatadiki, yillar davomida o‘z ustida ishlamay qo‘yanligi natijasida o‘qituvchilarda zarur bilim va kasbiy kompetentlikning taqchilligi yuzaga kelganligi, ya’ni kasbiy tayyorgarligi pastligi ular faoliyatidagi eng katta kamchilik sifatida namoyon bo‘ldi. Tizimdagi ilg‘or tajribalar, dolzarb yangiliklarni o‘rganib, o‘zining pedagogik faoliyatida qo‘llash ko‘nikmalariga ega emasligi ko‘plab o‘qituvchilarning zamon talabidan orqada qolishiga olib keldi. Muallimlarning mustaqil ishlashini tashkillashtirish, ularni muvofiqlashtirib borish ishlari ham talabga javob bermas edi.

Bunday achinarli holatning vujudga kelishi jamiyatda muallimning mavqeい va hurmatiga xiyonat bilan barobar edi. Bunaqa vaziyatda o‘qituvchining ma’naviy qiyofasini rivojlantirish haqida gap bo‘lishi ham mumkin emas edi.

Mamlakatimiz oldida, xalqimiz taqdirida muallimga, ta’limga bo‘lgan bunday munosabatni tubdan o‘zgartirish, azaldan yurtimizda ilmu urfonga, ahli ilmga, ustoz va murabbiylarga bo‘lgan hurmatni, ushbu yo‘nalishdagi ezgu an’analarni tiklash barobarida maktab ta’limi sohasidagi eng zamonaviy tajribalarni, xorij amaliyotini joriy etish, ta’limning ilg‘or metodikalarini tatbiq etish kabi o‘ta dolzarb muammolarni hal qilishdek og‘ir vazifalar turar edi. Eng avvalo muallimlik kasbiga e’tibor, uning nufuzini oshirish, o‘qituvchining mavqeini ko‘tarish, pedagoglik kasbining maqomini oshirish zarur edi.

O‘zbekiston Prezidenti tomonidan 2017-2018 yillarda qabul qilingan Farmon va Qarorlarda o‘qituvchining qadr-qimmati va jamiyatdagi obro‘yini oshirish, uning moddiy-ma’naviy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish masalalariga e’tibor qaratildi. Masalan, O‘zbekiston Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari

to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarorida Xalq ta’limi vazirligining markaziy apparati tarkibida vazirning Nazorat-huquqiy xizmati tashkil etilib, “davlat organlari va boshqa tashkilotlarning xalq ta’limi muassasalari faoliyatiga asossiz aralashuviga, pedagog kadrlarning sha’ni va qadr-qimmati kamsitilishiga, ularning mehnatga majburlanishiga, ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘sinqinlik qilishning har qanday shakllariga, o‘qituvchi va o‘quvchilarning huquqlari buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan choralarini ko‘rish”<sup>35</sup> uning asosiy vazifasi etib belgilandi.

Maktab ta’limi sohasida islohotlarni jadallashtirishga ko‘maklashish va yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan ta’limni rivojlantirish jamg‘armalarining tashkil etilganligi, moliyaviy manbalarining belgilab berilganligi maktab ta’limi tizimida tub yangilanishlarni amalga oshirishda qulay imkoniyatlar yaratdi. Shuning barobarida o‘qituvchilik kasbining obro‘sni va ijtimoiy maqomini oshirish, umumta’lim maktablari, shuningdek, tizim xodimlarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minalash, ularning samarali ishlashi uchun qulay va munosib shart-sharoitlar yaratdi<sup>36</sup>.

Xususan, 2030 yilga qadar sohani tizimli, mintaqaviy va maqsadli rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, shuningdek, uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni o‘z ichiga olgan maktab ta’limi tizimini rivojlantirishning uzoq muddatli konsepsiyasi ishlab chiqildi va ayni paytda amaliyotga joriy etilmoqda<sup>37</sup>.

Davlatimiz rahbarining yuqoridagi Farmon va Qarorlarida o‘qituvchining bilim darajasi va pedagogik mahoratini oshirish orqali uning ma’naviy qiyofasini shakllantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ayniqsa, ushbu yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida o‘qituvchining ijtimoiy maqomining belgilab qo‘yilishi muhim o‘rin tutadi: “O‘zbekiston Respublikasida o‘qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog‘lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma’naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida e’tirof etiladi.

<sup>35</sup> “Xalq ta’limi tizimiga boshqarishning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2018 yil 6 sentyabr. 07/18/3931/1841-son.

<sup>36</sup> Qarang: o’sha hujjat.

<sup>37</sup> “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2019 yil 29 aprel. 06/19/5712/3034-son.

Davlat o‘qituvchilarning sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o‘sishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qiladi”<sup>38</sup> – Bosh Qomusimizdagи ushbu qoida mamlakatimizda o‘qituvchi imijini shakllantirishda eng asosiy, metodologik ahamiyat kasb etdi.

Yana bir metodologik manba - yangi tahrirda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ham mamlakatimizda o‘qituvchining nufuzini mustahkamlash hamda uzlucksiz ta’lim tizimini tubdan isloh qilishda tarixiy imkoniyatlar ochdi: “ta’lim, deyiladi ushbu hujjatda, - ta’lim oluvchilarga chuqur nazariy bilim, malakalar va amaliy ko‘nikmalar berishga, shuningdek ularning umumta’lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko‘nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon”<sup>39</sup>.

Mamlakatimizda uchinchi Renessans davrining ma’naviy poydevorini yaratishda muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladigan yana bir muhim hujjat – 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi bo‘lib, uning to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishi (43-maqсад)da “maktablarda ta’lim sifatini oshirish, pedagog kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish”<sup>40</sup> dek pirovard maqsad belgilangan bo‘lib, unga amalda erishish yo‘lida amaliy ishlar keng ko‘lamda olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ayni paytda faoliyat olib borayotgan 10 mingdan ziyod umumta’lim maktablari, ularda mehnat qilib kelayotgan 500 mingdan ziyod o‘qituvchilar va pedagog xodimlarga nisbatan chinakam hurmat muhitini yaratish borasida xayrli ishlar boshlangan.

Insoniyat tarixi shunday guvohlik beradiki, qaysi jamiyatda ziylanining, muallimning hurmat-e’tibori joyiga qo‘yilsa, o‘sha jamiyat o‘z hayotining barcha sohasida taraqqiyotga, ijtimoiy barqarorlikka. Ana shu tarixiy haqiqatni qaror toptirish maslalasida bizning mamlakatimizda amaliy ishlar davlat siyosati doirasida amalga oshirila boshlaganiga 5-6 yil bo‘ldi, xolos. Davlat rahbari Shavkat Miriziyoevning shaxsan o‘zi bu ezgu ibtidoning tashabbuskori bo‘ldi. Prezident huzurida 2019 yil 23 avgustda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va jamiyatda o‘qituvchining mavqeini oshirish masalalariga bag‘ishlangan

<sup>38</sup> O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

<sup>39</sup> «Ta’lim to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Qonun hujatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 yil 24 sentyabr. 03/20/637/1313-son.

<sup>40</sup> «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - 2022 yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

videoselektor yig‘ilishida “Bu kasbning obro‘sini faqat o‘qituvchining o‘zi fidokorona mehnati, o‘z ustida tinimsiz ishlashi, boshqalarga o‘rnak bo‘lishi bilan oshira oladi. Biz endi jamiyatimizda o‘qituvchilarni “siz”lab, ularning sha’ni va hurmatini boshimizga ko‘taradigan, ularni tom ma’noda kelajak bunyodkorlari, deb ulug‘laydigan muhitni yaratishimiz zarur”<sup>41</sup>, deb ta’kidlangani fikrimizning isbotidir.

Xalqimizda qadimul avvaldan muallimlik kasbi ulug‘langan, u xalqimizning ardog‘ida bo‘lib kelgan. Muborak hadislarda “Muallimning ikki dunyosi obod” deb bejiz aytilmagan. Qaysi bir donishmand “davlatning kuchli yoxud zaifligini bilmogchi bo‘lsang, uning muallimga bo‘lgan munosabatini o‘rgan”, degan ekan. Biz kuchli davlat qurmoqchi ekanmiz, avvalo chinakam ziyolilar, fidoyi muallimlar avlodini tarbiyalashimiz kerak.

*Muallimning asl qiyofasini tiklash – bugungi kunda mamlakatimizda faqat imjmeykerlik faoliyatining maqsadi bo‘libgina qolmay, balki yangidan barpo etilayotgan O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini yaratishdek umummilliy harakatning uzviy tarkibiy qismidir. O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini shakllantirish va rivojlantirish – yangi ma’naviy makonga yangicha mazmun, yorqin istiqbol baxsh etuvchi jarayondir.* Muhtaram Prezidentimizning iborasi bilan aytganda, yangi ma’naviy makon - “biz orzu qilayotgan yangi O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma’rifatli jamiyatdir”<sup>42</sup>.

Yangi jamiyatning ma’naviy asoslarini barpo etish, uning yangi ma’naviy qiyofasini yaratishning o‘zi bo‘lmaydi. Bu tarixiy missiyani amalga oshirish ko‘p mashaqqatni talab qiladi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoev “Yurtimizda Uchinchi Renessans davri poydevorini barpo etish uchun bizga zamonaviy ilm va yana bir bor ilm, tarbiya va yana bir bor tarbiya kerak. Bugungi va ertangi kunimizni, yoshlarimiz taqdirini hal qiladigan yuksak malakali muallim va murabbiylar, professor-o‘qituvchilar, haqiqiy ziyolilar kerak”<sup>43</sup>, deb ta’kidlagani ushbu xulosamizning isbotidir.

Mamlakatimizda 2017-yildan buyon uzluksiz ta’lim tizimining huquqiy asoslarini yaratish asnosida o‘qituvchining ma’naviy qiyofasini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni boshlanganligi va bugungi kunda

<sup>41</sup>“Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

<sup>42</sup>Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 458 b.

<sup>43</sup>Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qatiy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi//”Xalq so‘zi”, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).

uning jadallik bilan davom ettirilayotganligi maktab ta’limida o‘ziga xos inqilob, bir sifat holatidan ikkinchi sifatga o‘tishdek yalpi universal qonunning amaldagi ifodasi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Ushbu jarayon ikkita asosiy yo‘nalishda olib borilmoqda: 1) ta’limning mazmuni va sifatini tubdan yaxshilash maqsadida maktab ta’limi sohasiga yangi, zamonaviy metodikalarini joriy qilish; 2) o‘qituvchining ma’naviy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirish. Ayni paytda mamlakatimizda har ikkala yo‘nalishda ham huquqiy-me’yoriy asoslar yaratilgan bo‘lib, ularni amaliyatga tatbiq etish jadallik bilan olib borilayotir.

Albatta, ikkinchi yo‘nalish - o‘qituvchining ma’naviy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirish vazifasini ijobiy hal etish, avvalo, o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy madaniyatini zamon talablari darajasida tashkil etishga bog‘liq. “Pedagogning axloqiy madaniyati – pedagogning axloqiy sifatlari (vajlari, shaxsiy qadriyatlari, e’tiqodi, bilimi, his-tuyg‘u va qobiliyatları) rivojlanganlik darajasini ifodalaydigan shaxsiy va professional sifatlarining murakkab uyg‘unlashgan tizimi bo‘lib, u axloqiy tanlov va axloqiy faoliyatni zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhit va professional faoliyatda ideal yoki me’yoriy deb hisoblanadigan insoniy qadriyatlari, tamoyillar, qoidalar bilan qiyoslaganda namoyon bo‘ladi”<sup>44</sup>.

Ulug‘ mutafakkir Jaloliddin Rumiy hazratlarining “Yo asling kabi ko‘rin, yo ko‘ringaning kabi bo‘l” degan hikmatida muallimlik odobi, uning asl mohiyati mujassamdir. “Muallimning asl qiyofasi” degan iboraning o‘ziyoq uning tarixiy mazmunga ega ekanligidan dalolat berib turibdi. Odamlarga bilim va tarbiya beruvchi muallim qadimdan ibrat namunasi sifatida ardoqlab kelingan.

Mashhur nemis pedagogi Adolf Disterveg (1790-1866) “O‘qituvchi – koinotning quyoshi”<sup>45</sup> deb bejiz aytmagan. Disterveg o‘qituvchining ma’naviy qiyofasini belgilovchi talablar ichida o‘z fanini chuqur bilish, kasbiga e’tiqod va bolalarni sevish, o‘z-o‘zini tarbiyalash kabi tamoyillarni alohida ajratib ko‘rsatgan, “maktabdagagi buyuk mo‘jiza, o‘quvchilar uchun ibrat namunasi – o‘qituvchidir”<sup>46</sup>, deb hisoblagan.

Buyuk ajdodimiz Mir Alisher Navoiy “Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qutmish ranj ila, aylamat bo‘lmashado oning haqin yuz ganch ila” degan hikmatni, fransuz faylasufi Gelvetsiy “Har tomonlama chuqur

<sup>44</sup> О.Кочина. Нравственная культура педагога. // solincesvet.ru – 2016.

<sup>45</sup> Qarang: ru.wikipedia.org > wiki / Дистервег,\_Адольф.

<sup>46</sup> O’sha manba.

bilimga ega bo‘lmay turib, boshqalarni o‘qitishni zimmasiga olish o‘ta axloqsizlikdir”, mashhur pedagog V.Suxomlinskiy “Bolalarga o‘z qalbini bergan insongina chinakam tarbiyachidir”, ustoz pedagog A.Makarenkoning “O‘qituvchida prinsipiallik va talabchanlik bilan birga adolatlilik va olivjanoblik ham bo‘lishi kerak”, degan so‘zlari ham aslida bejiz aytilmagan, ulug‘ adib N.Nekrasov o‘qituvchini “aql, mehr, abadiylik urug‘ini sochuvchi” deb atagani ham ayni haqiqat.

Mamlakatimizda keyingi 5-6 yilda ta’limga, o‘qituvchining mehnatini qadrlash, uning mahoratini oshirish masalalariga e’tibor kuchaytirilgani bois ta’limda samaradorlik ham ortib bormoqda. “Ta’lim sifatini oshirishdek ezgu maqsadga faqatgina o‘qituvchining pedagogik mahoratini oshirmsadan erishib bo‘lmasligi bugun barchaga ayon. Agar o‘qituvchida pedagogik mahorat etishmasa, ta’limda samara haqida gap bo‘lishi mumkin emas. Pedagogik mahorat eng avvalo o‘qituvchining qiyofasi (imiji), uning ilmiy va ma’rifiy salohiyati, g‘oyaviy etukligi, shaxsiy sifatlari, o‘quvchi yoshlari oldidagi obro‘-e’tibori, hayotiy tajribasi va ko‘nikmalariga bog‘liq, albatta”<sup>47</sup>.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydag‘i “2022-2026-yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmonida “jamiyatda o‘qituvchi kasbi nufuzini oshirish, pedagoglar uchun qulay ijtimoiy sharoitlar yaratish va mehnatini munosib rag‘batlantirish; o‘qituvchilarining yoshlarga ta’lim va tarbiya berishdagi mas’uliyatini, doimiy kasbiy rivojlanishdagi talabchanligini oshirish”<sup>48</sup> eng muhim va dolzarb vazifa qilib belgilandi, eng asosiysi – “namunali o‘qituvchi mezonlarini ishlab chiqish”<sup>49</sup> vazifasi mamlakatimiz mакtab ta’limi tarixida ilk marta kun tartibiga qo‘yildi.

Namunali o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak, uning ma’naviy qiyofasini belgilovchi mezonlar nimalarni o‘z ichiga oladi, degan masala faqat ta’limni boshqaruv organlarining emas, balki, birinchi galda vatanimiz pedagogika fani, ilmiy tadqiqotchilar oldida turgan muhim va prinsipial masaladir. Keyingi 5-6 yilda mакtab ta’limi islohotlari natijalaridan kelib chiqib, jamiyatimizda amalga oshirilayotgan yangilanish jarayonlariga hamohang tarzda o‘qituvchining ma’naviy

<sup>47</sup>Haydarov K. Ta’limda kognitiv jarayonlarni faollashtirishning ilmiy-metodik talqini // Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari/- 2023 yil 27 iyun. – Samarqand, 2022. – B.606.

<sup>48</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydag‘i “2022-2026 yillarda mакtab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-son Farmoni. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.

<sup>49</sup> O’sha manba.

qiyofasini belgilaydigan *quyidagi fazilatlarni rivojlantirish* pedagogik taraqqiyotimizning eng muhim omillaridandir. Chinakam pedagog:

o‘z kasbini jondan sevadigan, uning ijtimoiy qadr-qimmati va davlat siyosatiga molikligini to‘g‘ri anglaydigan, yuksak mas’uliyat hissini vujudiga singdirgan;

yuksak aql-zakovatli, ilmu urfon yutuqlaridan boxabar va ulardan o‘z pedagogik faoliyatida foydalana oladigan;

o‘z faoliyatidaadolat tamoyillariga rioya qiladigan, o‘quvchilar bilimini xolis baholaydigan, har bir o‘quvchining individual o‘ziga xosligi va qobiliyatini rivojlantira oladigan;

“hayot davomida o‘qish” qoidasiga qatiy amal qiladigan, o‘z ustida muntazam ishlaydigan, professional mahorati, bilimi va malakasini doimo oshirib boradigan;

ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganib, o‘z pedagogik tajribasi va mahoratini oshirib hamda hamkasblar o‘rtasini uni ommalashtirib boradigan;

o‘z-o‘ziga tanqidiy yondasha oladigan, hamkasblarga samimiymunosabatda bo‘ladigan, ularning kamchiliklarini bartaraf etishga do‘stona intiladigan;

o‘qituvchi odobi (takt)ga qatiy rioya qiladigan, ishda va oilada chinakam ibrat namunasi bo‘ladigan;

jamoa, xalq manfaatini ustun qo‘yadigan, fidoyi, tashabbuskorlik fazilatlari bilan o‘zining avtoritetini doimo oshirib boradigan;

tashqi ko‘rinishida jozibador;

har qanday murakkat vaziyatda bosiq, his-tuyg‘ularga erk bermaydigan;

o‘quvchilarga samimiym, shuning barobarida talabchanlik bilan munosabatda bo‘ladigan;

har bir o‘quvchining yosh hamda individual xususiyatlarini yaxshi bilgan holda ularga yondashadigan;

o‘quvchilar, ularning ota-onalari, yon-atrofdagilar, jamoatchilikka e’tiborlilik, yuksak muloqot madaniyatiga egalik;

o‘quvchilarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, kamsitmaslik, o‘zining “ustunligini” isbotlashga urinmaslik;

o‘quvchilarning botiniy olami, ishonch va e’tiqodiga ta’sir o‘tkaza olish kabi xususiyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi. Ana shu ezgu maqsadga erishilsa, yangi O‘zbekistonga mos o‘qituvchining ma’naviy qiyofasi shakllangan va zamonaviy imijga ega bo‘lgan holatga erishish mumkin.

Albatta, bunga osonlikcha erishib bo‘lmaydi. Buning uchun ta’limning boshqaruv organlari faoliyatida tub sifatiy o‘zgarishlarni ham amalga oshirish zarur. O‘zbekiston Respubлиka Prezidentining 2023 yil 26-maydagi “Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni belgilangan vazifalarning maktab ta’limi tizimiga joriy etilishi ana shunday sifat o‘zgarishlarini amalga oshirishga qaratilgan<sup>50</sup>.

Bugun zamonning shiddati juda tez: bugungi bilim va tajriba ertaga eskiradi. Zamon bilan teng yurishga o‘rganish – ob’ektiv zaruriyat. Shuning uchun zamonning har bir lahzasidan oqilona foydalanib qolish barcha jabhada bo‘lgani singari, maktab ta’limi islohotlarida ham juda muhim. O‘zbekistonning yangi saylangan Prezidenti Sh.Mirziyoev inauguratsiya marosimida “Hammamiz yaxshi tushunamiz, agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi - ma’naviyatdir. Biz yangi O‘zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya’ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy g‘oyalarni mujassam etadigan kuchli ma’naviyatga tayanamiz. Shu maqsadda “Yangi O‘zbekiston - ma’rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshiramiz”<sup>51</sup>.

“Ma’rifatli jamiyat” deb ta’riflanayotgan yangi O‘zbekistonda eng obro‘li inson – pedagog, o‘qituvchi bo‘lishi kerak. Yangi O‘zbekistonning o‘qituvchisi o‘zining mehnati, turmushi, odamlar o‘rtasidagi hurmati, odob-axloqi, mas’uliyati – barcha insoniy fazilatlari bilan barchadan ajralib turishi lozim.

Bugungi o‘qituvchi kechagi muallim emas, u o‘zining barcha jihatlari bilan avvalgi muallimdan tubdan farq qilishi zarur. Yangi jamiyatda o‘qituvchilik mas’uliyati, uning ma’naviy qiyofasi har doimgidan yuksak va sharaflidir. Chunki, bugungi o‘qituvchi XXI asr kishisini kamol toptirishga mas’ul bo‘lgan insondir.

Yuqorida bayon etilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. O‘zbekiston Prezidentining 2018-2023-yillardagi ta’lim islohotlariga doir Farmon va Qarorlarida o‘qituvchining bilim saviyasi

---

<sup>50</sup>O‘zbekiston Respubлиka Prezidentining 2023 yil 26-maydagi “Maktabgacha va mакtab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son.

<sup>51</sup>O‘zbekistonning yangi saylangan Prezidenti Sh.Mirziyoev inauguratsiya marosimidagi nutqi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 yil 15 iyul soni.

va pedagogik mahoratini oshirish orqali uning ma'naviy qiyofasini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

2. O'zbekistonda uzluksiz ta'lif tizimining huquqiy-me'yoriy asoslarini yaratish bilan birgalikda o'qituvchining ma'naviy qiyofasini rivojlantirish jarayoni jadallik bilan davom ettirilayotganligi maktab ta'limida o'ziga xos inqilob, sifatiy o'zgarish tarzida namoyon bo'lmoqda. Ushbu jarayon birinchidan, ta'lifning mazmuniga yangi, zamonaviy metodikalarini joriy qilish; ikkinchidan, o'qituvchining ma'naviy salohiyati va pedagogik mahoratini oshirish yo'nalishlarida amalga oshirilmoqda.

3. Yangi davr o'qituvchisining ma'naviy qiyofasini belgilovchi mezonlar nimalarni o'z ichiga olishi kerak, degan masala faqat ta'lifni boshqaruv organlarining emas, balki, vatanimiz pedagogika fani, ilmiy tadqiqotchilar oldida turgan g'oyat dolzarb va prinsipial masaladir.

## **II BOB. O'QITUVCHI MA'NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI**

### **2.1-§. O'qituvchi ma'naviy qiyofasini rivojlantirishda ajdodlar merosidan foydalanish**

Odamzod yaratilgandan boshlab, unga ong va tafakkurning in'om etilishi doimiy ravishda madaniy rivojlanish bosqichlarini boshdan kechirishiga sabab bo'lgan. Bu madaniy taraqqiyotni ta'lim-tarbiya taraqqiyottisiz tasavvur qilish qiyin. Insoniyat tafakkurining buyuk ildizlaridan biri bo'lgan pedagoglik san'ati bizning yurtimizda ham qadimiy tarixga ega. Barcha fan sohalari kabi pedagoglik san'ati tarixi va u bilan bog'liq manbalar shu paytgacha olimlarimiz tomonidan yaxshi o'r ganilgan.

Insoniyat avlodlari shakllanib, hozirgi qiyofaga kelgunicha odamzod turli taraqqiyot bosqichlarini boshdan kechirgan. Dastlabki paytlarda kundalik turmushi faqat terib-termichlab ovqat topib eyish va qorin to'ydirishdan iborat bo'lgan. Yashash uchun kurash natijasida, etarli ozuqa to'plash uchun sodda ov quollaridan murakkab quollar yasashga erishdi. Bu jarayon odamlarning ongi va tafakkuriga katta ta'sir ko'rsata boshladi.

Bugun biz tarixiy bir davrda xalqimizning madaniy merosi tiklanishi va jahon hamjamiyatiga aslicha namoyish etilayotgan bir davrda yashamoqdamiz. Yangilanishlar davri hamisha o't mishga qiziqishning beqiyos darajada o'sishidan boshlanadi. Bu esa madaniy merosimizning o'zagini tashkil etuvchi pedagoglik san'atini rivojlantirish va o'r ganish bilan ham bog'liq hisoblanadi. O't mish voqealari, tarixiy hodisalar bugungi xulosalarimizni tiniqlashtiradi, ertangi kunimizning, rejalarimizning asosini va haqiqatini ko'rsatib beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil 30 aprel)ning 61-moddasida fuqarolar O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini asrab-avaylashi shart deb ta'kidlangan<sup>52</sup>.

O'zbekiston xalqining tarixiy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va tabiiy merosini nafaqat asrab avaylash qolaversa, undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muhim vazifalarni hal qilishda ijobjiy yordam beradi. Buning uchun buyuk bobolarmizning ma'naviy, madaniy, ilmiy

---

<sup>52</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

va tabiiy merosini o‘rganish va undan pedagoglik faoliyatimizda oqilona foydalanishimiz juda muhimdir.

Ayniqsa ulug‘ bobolarimizning o‘qituvchilik kasbiga va bu kasb sohiblariga nisbatan e’tiborli, xayri-xox, talabchan va ularga nisbatan hurmatda bo‘lganliklari alohida e’tiborga sazovordir.

Bugungi taraqqiyot davri o‘z-o‘zidan shu darajadagi yuqori cho‘qqilarni zabit etgani yo‘q. Bu yo‘lda qanchadan-qancha ulug‘ allomalar, daholar, ustozlar, olimu-fuzalolar yashab ijod etdilar. Va ular butun bir umrlarini ta’lim-tarbiyaga, insoniyatning ezgu niyatlarini amalga oshirishga sarf etdilar.

Tarixda ham o‘qituvchi kasbining nozikligi, mas’uliyatliligi va murakkabligi hamda sharafli ekanligi to‘g‘risida mulohazalar, muallimning mahorati, ularga qo‘yiladigan talablar, fazilatlariga oid qarashlar, munosabatga kirishish mahorati, muomala madaniyati Sharq mutafakkirlarining asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Sharq pedagogikasi va pedagogik mahorati ming yillik tarixga ega. Sharq ma’naviy-madaniyatining xilma-xil jihatlari, ayniqsa Sharq Uyg‘onish davrida juda rivojlangan bo‘lib, bu davrda yashab ijod etgan Abu Nasr Farobi, Al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Bog‘dod olimi Nasriddin Tusiy, temuriylar davri mutafakkirlari Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Devoniy, Alisher Navoiy va boshqa ko‘plab mutafakkirlarning ijodlari pedagogik tafakkur taraqqiyotida yosh murabbiylarning ma’naviy-axloqiy kamolotida muhim manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

Jumladan, sharqning buyuk allomasi, qomusiy olim Abu Nasr Farobi (873-950) muallimning ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida ibratli g‘oyalarni ilgari surgan. Uning fikricha, «o‘qituvchi - aql-farosatga, chiroqli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. SHu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», - deb ta’kidlaydi. Farobi o‘qituvchi shaxsiga xos qator fazilatlarga xolisona, odilona, oqilona sharh berish imkoniyatiga erishgan buyuk zotdir. Shuning uchun mazkur sharhlar, ilmiy ilovalar, teran fikrlar, ibratli mulohazalar ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Mazkur muammo yuzasidan mulohaza yuritgan atoqli olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning fikricha, «... O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rosggo‘y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi

biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim». Abu Ali ibn Sino mulohazasiga ko‘ra tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko‘rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo‘lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, gohida maqtab qo‘yish, aksincha bo‘lganda esa, unga tanbeh berishi kerak. Lekin, deydi Ibn Sino, tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo‘lmasligi lozim, o‘quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o‘zboshimcha bo‘lib qolishiga olib boradi,-deydi Ibn Sino.

Nasriddin Tusiy(1201-1272, Bog‘dod) o‘zining «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» degan asarida shunday deydi: «O‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalananadigan bo‘lishi dozim... O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo‘pol va qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchi o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin» deydi alloma.

O‘qituvchi va uning mahorati to‘g‘risida Abdurahmon Jomiy bobomiz, nazm mulkining sultonı Alisher Navoiy bobolarimiz va boshqa allomalarning asarlarida o‘qituvchi qobiliyati, shaxsiy fazilatlari, uning nutqi, notiqlik san’ati, madaniyati haqida qimmatli, durdoni fikrlari mavjud. Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiy o‘z asarlarida bola dunyoqarashining - kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt boshqalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,

Nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon, - deb hitob qiladi u «Iskandar xirodnoması» asarida.

O‘zbek adabiyotining dahosi Alisher Navoiy o‘z asarları va ilmiy qarashlarida o‘qituvchilik qobiliyati va uning obro‘sı, odobi yuzasidan ibratomuz mulohazalar yuritadi. Alloma fikricha o‘qituvchi faoliyatini ijodiy yondashuvsiz tasavvur qila olmaydi. U doimo o‘z ustida mukammal ishlashi, tajriba oshirib borishi zarur deydi. Ana shu boisdan uning asarlarida odob, axloq, ziyraklak, irodaviy kuch, poklik, samimiylık xislatları asosiy o‘rinni egallaydi. O‘qituvchining har jihatdan ibrat va namuna bo‘lishlari ta’lim va tarbiya garovi ekanligiga ishora qilgan(1-jadval).

1-jadval.

Mutafakkir bobolarimizning o‘qituvchi-murabbiylar xususidagi  
purma’no fikrlari

Tr	Mutafakkirlar	Fikrlari	
1	Abu Nasr Farobiy	O‘qituvchi - aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarni to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo‘lishi lozim. Ana shundagina u insoniylikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi	
2	Abu Ali ibn Sino	O‘qituvchi matonatli, sof vijdonli, rosggo‘y va bola tarbiyalash uslublarini, axloq qoidalarini yaxshi biladigan odam bo‘lmog‘i lozim. O‘qituvchi o‘quvchining butun ichki va tashqi dunyosini o‘rganib, uning aql qatlamlariga kira olmog‘i lozim. Tarbiyachi dastlab bolalarni yaxshi ko‘rishi, hurmat qilishi, ular bilan xushmuomala bo‘lishi shart. Agar bola ishni yaxshi bajarsa, uni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, gohida maqtab qo‘yish, aksincha bo‘lganda esa, unga tanbeh berishi kerak. Lekin, tanbeh bolaning izzat-nafsiga tegadigan bo‘lmasligi lozim, o‘quvchiga murosasozlik qilish esa bolaning o‘zboshimcha bo‘lib qolishiga olib boradi	
3	Bog‘dod olimi Nasriddin Tusiy,	O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» degan asarida shunday deydi: «O‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajada isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riligiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalanadigan bo‘lishi dozim... O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharxandali, qo‘pol va qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchi o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin	
4	Abdurahmon Jomiy,	bola dunyoqarashining - kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqli, adolatli, o‘zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo‘lishi kerak. O‘zini nomunosib tutgan odam hech vaqt boshqalarga bilim bera olmaydi, degan fikrni bildiradi.  Ustod, muallimsiz qolganda zamon, Nodonlikdan qora bo‘lurdi jahon, - deb hitob qiladi u «Iskandar xirodnomasii» asarida	

5	Alisher Navoiy	alloma fikricha o‘qituvchi faoliyatini ijodiy yondashuv�iz tasavvur qila olmaydi. U doimo o‘z ustida mukammal ishlashi, tajriba oshirib borishi zarur deydi. Ana shu boisdan uning asarlarida odob, axloq, ziyraklak, irodaviy kuch, poklik, samimiylilik xislatlari asosiy o‘rinni egallaydi. O‘qituvchining har jihatdan ibrat va namuna bo‘lishlari ta’lim va tarbiya garovi ekanligiga ishora qilgan	
6	Abdulla Avloniy	ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakli, uslub hamda vositalarini qidirish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir	

Bundan tashqari o‘qituvchining kasb mahoratini tarbiyalashning mohiyati to‘g‘risidagi mulohazalar «Qobusnoma», «Xotamnoma», «Qutadg‘u Bilib» kabi buyuk asarlarda ham bayon etib berilgan. Chunki bu asarlarning barchasi odobnomaning xuddi o‘zginasi bo‘lganligi sababli tarbiyachi-murabbiyning o‘ziga xos xislatlarining shakllanish bosqichlari ifodalab berilgan.

XIX-XX asrda Turkistondagi jadidlar harakatining asoschilaridan biri, buyuk ma’rifatparvar, o‘qituvchi, mohir tadqiqotchi Abdulla Avloniy ta’lim tizimi, o‘qitishni takomillashtirib, o‘qituvchilar malakasini oshirish, bo‘lg‘usi o‘qituvchini tayyorlash muammolariga mutlaqo yangicha yondashgan olimdir. Uning fikricha ijodiy izlanish, o‘qish va o‘qitishning yangi shakli, uslub hamda vositalarini qidirish o‘qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir,-deb ta’kidlaydi.

Shunday qilib, O‘rta Osiyo mutafakkirlari va o‘zbek ma’rifatparvarlari o‘qituvchi kuchli xotiraga, iroda va tafakkurga, aql-zakovatga, chiroylı nutqqa ega bo‘lishi, ko‘zlangan maqsadni amalgalashish yo‘lida jonbozlik, qatiyatilik ko‘rsatishi, o‘quvchilarning ruhiy dunyosiga to‘g‘ri yo‘l topa olishi, ularga ta’sir o‘tkazishi, vijdonli, samimiy, odobli, nazokatli, ishchan, mas’ul shaxs sifatida faoliyat ko‘rsatishi zarur ekanligini o‘z asarlarida ta’kidlab o‘tadilar<sup>53</sup>.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, buyuk ajdodlarimizning ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy-ma’rifiy merosidan foydalanish zamonaviy pedagoglarning ma’naviy qiyofasini yanada takomillatirishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

---

<sup>53</sup> Sharq mutafakkirlari asarlarida o‘qituvchi-murabbiy mahorati haqida //<https://fayllar.org/reja-islom-dinining-tarqalishi-quron--dunyo-madaniyatining-ulq.html?page=3>.

## **2.2-§. O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlanishida ijtimoiy muhitning o‘rni**

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng qamrovli islohotlar ta’lim – tarbiya jarayoniga oldiga ma’suliyatli vazifalarni amalga oshirishni talab etmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirish ta’lim-tarbiya jarayonining etakchilari bo‘lmish o‘qituvchining ma’naviy qiyofasining rivojlanganligiga bog‘liq.

Mazkur masalaning nechog‘lik dolzarb ekanligini O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatida “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to‘g‘ri yo‘lidir” deb ta’kidladilar. Yurtboshimiz ma’ruzalarida “Najot – ta’limda, najot tarbiyada, najot bilimda” Chunki barcha ezgu maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi deb qayd etdi.

Muhtaram Prezidentimiz o‘z murojaatlarida ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish va ta’lim jarayonini tashkil qilish bo‘yicha qator muhim vazifalarni belgilab berdi. Jumladan,

- maktablarda ta’lim sifatini ko‘tarish;
- jamiyatda o‘qituvchi kasbining nufuzini oshirish;
- muallimlarning sharoitlarini yaxshilash;
- o‘qituvchilarning maqomini, ularning sha’ni va qadr-qimmatini oshirish;
- o‘quvchilarda erkin va kreativ fikrlashni, jamoada ishlash va muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish (21 asr ko‘nikmalari ya’ni, 4 K ko‘nikmalari);
- ilg‘or xorij ta’lim dasturlaridan foydalanish (“A-level” Prezident maktablarida foydalanilmoqda);
- ilg‘or ta’lim standartlari va metodikalarini joriy etish uchun alohida ilmiy institut va laboratoriylar tashkil qilish;
- yuqori malakali xorijiy o‘qituvchilarni olib kelish;

Yangi O‘zbekistonda maktab jamoalari va muallimlarining mas’uliyatini - aynan ana shu masalalarda yaqqol namoyon bo‘lashini qayd etdi<sup>54</sup>.

---

<sup>54</sup> Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

Yuqorida yurtboshimiz tomonidan ta’lim jarayonini samaradorligini oshirish va ta’lim jarayonini tashkil qilish bo‘yicha belgilangan vazifalar o‘qituvchi va murabbiylar zimmasiga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

O‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar to‘g‘risida gapirliganda, birinchi navbatda, shaxsning o‘zi, ikkinchidan, mikro(kichik) muhit, uchinchidan mezo(o‘rta) muhit va to‘rtinchi(makro) navbatda, jamiyat va undagi siyosiy, ideologik, madaniy-ma’rifiy, iqtisodiy sohalarning umumiyligi holatini qayd etish joiz.

Ta’lim muassasalaridagi ijobiliy ijtimoiy muhit pedagoglar jamoasining samarali faoliyat olib borish bilan bir vaqtida o‘qituvchilarning ma’naviy qiyofasini rivojlanishida ham muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Inson va boshqa tirik jonzotlar har birining hayot muhiti uning o‘y fazosidan boshlab ijtimoiy muhit va yashaydigan muhitigacha bo‘lgan sharoit hisoblanadi. Muhit – bu odamlarga ta’sir ko‘rsatadigan tashqi voqealarning yig‘indisi sifatida insonni o‘rab turgan, uning dunyoqarashi, kayfiyati, ruhiyati, orzu-umidlari va xulq-atvoriga bevosita ta’sir etadigan tashqi olamdir.

Muayyan muhit turli ko‘rinish va shakllarda namoyon bo‘ladi. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o‘sha jamiyat hayotida mavjud bo‘lgan va bo‘layotgan qonun qoidalarga asosan kamol topadi. Shu jamiyatdagi moddiy, ma’naviy va madaniy boyliklardan bahramand bo‘ladi, shuningdek, mazkur boyliklarni yaratishda ishtirok etadi.

Muayyan davlatning rivojlanganligi o‘sha davlatda yashayotgan insonlarning ongi, tafakurining taraqqiy etganligiga bog‘liq bo‘ladi, insonlarning taraqqiy etganligi esa o‘sha davlatning rivojlanganligiga bog‘liqdir. Bu har ikkala holat esa uzviy tarzda mavjud muhitning ijobiliyining natijasi mahsulidir. Bevosita jamiyatda yaratilgan moddiy, ma’naviy va madaniy boyliklar rivojlanish darajasiga ko‘ra shaxs kamolotiga o‘ziga xos ta’sir ko‘rsatadi. O‘z-o‘zidan rivojlanish yuksak bo‘lsa, u shaxsga o‘zining ijobiliy ta’sirini ko‘rsatadi va shaxs faoliyati davomida mehnati orqali o‘z moddiy, ma’naviy va madaniy boyligini yaratish jarayonida ongini, dunyoqarashini, hayotini, turmush tarzini ham yaxshilab boradi.

Muhit keng ma’noda (makromuhit) ijtimoiy-iqtisodiy tizimni ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlар va tartib-qoidalar majmuini, jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o‘z ichiga oladi. Tor ma’nodagi (mikromuhit) bevosita insonni qurshab olgan oila, mehnat, o‘quv va boshqa guruhlardan iborat. Ijtimoiy muhit shaxsning

shakllanishiga va rivojlanishiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtida insonning ijodiy faolligi, faoliyatni ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgaradi, bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi<sup>55</sup>.

Ijtimoiy muhit insonni o'rabi turgan va uning ongi hamda xulqiga faol (bevosita va bilvosita, stixiyali va ongli) ta'sir o'tkazuvchi barcha ijtimoiy shart-sharoitlar, (atrofdagi odamlar, ijtimoiy guruh, qatlamlar, jamiyatdagi tartib-qoidalar) faoliyat va aloqadorliklarni belgilashda xizmat qiluvchi falsafiy kategoriyadir. U «siyosiy muhit», «iqtisodiy muhit», «ma'naviy muhit», «axloqiy muhit», «ilmiy muhit» kabi qismlarga bo'linadi<sup>56</sup>. Ularning mikro (kichik), makro, mezo (o'rta) va mego (katta) darajalari mavjud. Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida tan olinishi, ya'ni shaxs maqomiga erishish uchun ijtimoiy-iqtisodiy hayot va ma'naviy-axloqiy tarbiya kerak. Insonning ta'lim-tarbiyasida uni o'rabi turgan muhim muhit ta'lim-tarbiya muassasalaridagi muhit sog'lom bo'lsa, yoshlarning ijtimoiy sifati, tayyorgarlik darajasi va bilimi yuqori bo'ladi.

Aynan ta'lim-tarbiya muhiti eng avvalo, shaxsning tafakkurini, dunyoqarashini, xulq-atvorini shakllanishida jamiyatning etakchi bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi.

Insonlarning ichki ruhiy olamini ifoda etuvchi ma'naviylik, ma'rifatparvarlik, axloqiylik, ya'ni ma'naviyat va axloq omili oilada, ta'lim jarayonida sog'lom, barqaror muhitni qaror toptirishda ustivorlik kasb etadi.

Shu bois ham O'zbekiston respublikasi Prezidenti "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga etishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir"<sup>57</sup> deb qayd etar ekanlar yoshlar axloqi ularning ma'naviy kamoloti masalasi nafaqat bugungi kun, balki, ertangi porloq kelajak garovi ekanligiga urg'u beradi.

Yosh avlod tarbiyasi bilan bog'liq muhim masalalarning echimi ta'lim-tarbiya maskanlari va ularda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning ma'naviy qiyofasining rivojlanganligiga bog'liqdir.

<sup>55</sup> Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2021. – 458 б.

<sup>56</sup> Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni "Maktab ta'limini rivojlantirish" bo'yicha videoselektor yig'ilishi.

<sup>57</sup> Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni "Maktab ta'limini rivojlantirish" bo'yicha videoselektor yig'ilishi.

Pedagoglarning ma’naviy qiyofasining rivojlanishiga bir qancha ijtimoiy omillar ta’sir qiladi. Jumladan, jamiyat, jamoat tashkilotlari(maxalla misolida), ota-onalar, manaviyatli pedagoglari jamoasi, ruhiy barqaror pedagoglar jamoasi, pedagogik jamoa rahbarining liderlik va boshqarib ko‘nikmalarining demokratlashganligi, pedagogda kasbiy pedagogik mahoratning rivojlanganligi kabi jihatlarini ta’kidlash joiz.

Jamiyatda qator yillar davomida pedagoglarga bo‘lgan salbiy munosabat, ularning obro‘sizlanishiga, qadr-qimmatining yo‘qolishiga, jamiyatdagi nufuzini o‘ta pasayishiga olib keldi. Natijada pedagoglik kasbiga intilish, bu kasbga nisbatan hohish iroda yoshlar tomonidan yomonlashib bordi. Iste’dodli, qobiliyatli yoshlar boshqa sohalarga harakat qila boshladi.

Davlat tepasiga muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoevning kelishi ta’limga, jumladan maktab ta’limiga, pedagoglar faoliyatiga, ularning mehnat samaradorligini oshirilishiga juda katta voqiylik bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida 2019 yil 23 avgust kuni “Xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish” masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Prezidentimiz ushbu yig‘ilishda maktab ta’limi tizimini isloh qilish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, bu borada oldimizda turgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritar ekan, ulug‘ ma’rifatparvar bobomiz Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i mактабдир” degan fikrini alohida ta’kidlab, bu masalaning mohiyati va ahamiyatiga atroflicha to‘xtaldi. Demak dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblar ichida eng ulug‘i esa o‘qituvchilikdir.

Muhtaram Prezidentimiz ushbu yig‘ilishda “Bugundan boshlab eng hurmatli, e’zozli insonlar o‘qituvchilardir” deb ta’kidladilar<sup>58</sup>. Va shu kungacha davlatimiz tomonidan o‘qituvchi-murabbiylarga bo‘lgan ijobiy munosabatlar rivojlanib kelmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishda yurtboshimiz «Agar kimda-kim maktab bu faqat Xalq ta’limi vazirligining ishi, deb o‘ylasa, mutlaqo yanglishadi.Maktab ta’limi sohasidagi islohotlar vazirlik va idoralar, tarmoq rahbarlari, barcha darajadagi hokimlar, ilmiy tashkilotlar, ziyorilar, keng jamoatchilikning

---

<sup>58</sup> Prezidentimizning Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 23 avgustdagи oliy maslis yig‘ilishidagi ma’ruzasi.

vazifasi bo‘lishi shart va zarur. Shundagina kutilgan natijaga erishish mumkin»,<sup>59</sup> deb ta’kidladi. Muhtaram yurtboshimiz tomonidan “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha bunday talablarni qo‘yilishi barcha rahbar xodimlarda dahldorlik va ma’suliyat tuyg‘usini uyg‘otishi muqarrar.

Jumladan, 2023-yil 26-iyun kuni Prezidentlikka nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoev Samarqandda saylovchilar bilan uchrashuvida viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi haqida gapirdi. Va bu boradi dasturdan o‘rin olgan ustuvor jihatlarga batafsil to‘xtalib o‘tib, “Kelgusi 7 yilda qo‘srimcha 110 mingta yangi o‘quvchi o‘rnlari yaratamiz. Bunda 21 ta yangi maktab, 347 maktabga qo‘srimcha bino quriladi. 210 maktab yangidan kapital ta’mirdan chiqariladi. Samarqandda 2030-yilga qadar bironta maxallada bog‘cha muammosi qolmaydi. Buning uchun 76 ta maxallada ilk bor bog‘cha faoliyati yo‘lga qo‘yiladi. Qo‘srimcha 250 ta bog‘cha tashkil qilinadi” deb ta’kidladi. Demak, ushbu saylov oldi dasturida ko‘rsatilgan ustuvor jihatlari ta’limga, ta’lim jarayoniga bo‘lgan ijobiy munosabatlarning yaqqol nishonasidir<sup>60</sup>.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ma’ruzalarida Janubiy Koreyaning jamoat boshqaruvidagi bizdagi “maxalla”ga o‘xshagan jihatlariga to‘xtalib, u erdagи jamoat tashkilotlari tomonidan maktabda farzandi yaxshi natijalarga erishmagan oilalar ushbu hududdan ko‘chib ketishligi talab qilinishi haqida gapirib o‘tdi. Bizda ham “Bir bolaga etti maxalla ota-on” kabi xalq naqllari bekorga aytilmagan. Demak maxalla va maxallada istiqomat qilayotgan fuqarolarning maktabga va pedagog faoliyatiga ijobiy munosabatlarining namoyon bo‘lishiga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Bunda mahallalar faollari, mahalla oqsoqollari va mahallarda istiqomat qilayotgan fuqarolarning maktabga va pedagog faoliyatiga ijobiy munosabatlarini yanada rivojlantirish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023 yil 30 aprel)ning 77-moddasida “Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar o‘z farzandlarini voyaga etguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”<sup>61</sup> deb belgilab qo‘yilgan. Bu o‘rinda ota –onalar o‘z ma’suliyatini to‘laqonli anglagan holda pedagoglarga,

<sup>59</sup>Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

<sup>60</sup>Prezidentlikka nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoevning 2023 yil 26 iyun kuni Samarqandda saylovchilar bilan uchrashuvidagi saylov dasturidan.

<sup>61</sup>O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.

ustoz-murabbiylarga hurmati, ularga ishonchi, ehtiromi, ta’lim muassasalari bilan ijobiy hamkorliklarini yuqori cho‘qqilarga ko‘tarish bu orqali fanzandlari ta’lim-tarbiyasida kutilgan natijalarga erisha oladilar.

Har qanday jamoadagi ijobiy ma’naviy muhit o’sha jamoaning samarali faoliyati garovidir. Ta’lim maskanlarida faoliyat olib borayotgan manaviyatli pedagoglarda esa doimo pozitivlik, kommunikativlik, kreativlik, kollobarotivlik, tashabbuskorlik, ongli tanqidiy fikrlash, empatik kabi ijobiy hatti-harakatlar doimo etakchilik qiladi va ta’lim jarayonini samaradorligini oshirib boradi.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022-yil 28-yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishda Prezidentimiz maktablardagi muhit haqida to‘xtalib, boshqaruvni isloh qilish zarurligini ta’kidladi, xalq ta’limi mudirligi va maktab direktorligiga malakali menejerlarni tayinlash, xorijdan mutaxassislar jalb qilish bo‘yicha tavsiyalar berdi. Xalq ta’limi vazirligiga ushbu mutaxassislar bo‘yicha natijaga asoslangan talab va mezonzlarni ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi<sup>62</sup>. Bu talablardan ko‘rinadiki, bugungi ta’lim jarayoni etakchisi zimmasida ulkan vazifalarni xal qilish muammolari mujassamdir.

Pedagogik jamoadagi bugungi kun ayrim rahbar xodimlarining jamoaga nisbatan avtoritar, liberal uslubda va pedagogik xodimlarga nisbatan adolatsiz munosabatlari xodimlar faoliyatida salbiy holatlarga sababchi bo‘lishi mumkin. Shuning uchun pedagogik jamaa rahbari emas, jamaa lideri tushunchasi maktab boshqaruvi xodimlarida shakllanishi kerak. Rahbar “men” deydi, lider esa “biz” deydi. Bundan tashqari rahbar xodimlarda boshqaruv ko‘nikmalarini yuqori daraja egallaganligi hamda pedagog xodimlarga demokrativ uslub munosabatda bo‘lishi jamoada ijobiy ma’naviy muhitni yanada yuksalishiga olib keladi.

Bugungi kunda dunyo tajribasida insonning ruhiy olamiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish orqali unda ishchanlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, etakchilik, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini rivojlantirish kabi muhim qobiliyatlarni ro‘yobga chiqarish isbotlangan. Bunga rus pedagogi A.Makarenkoning ishonch metodi, gruzin pedagogi, akademik Sh.A.Amonashvilining jismoniy ta’sir metodi kabilarni qayd etish

---

<sup>62</sup>Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

mumkin. Bunda pedagogik jamoada ruhiy barqaror muhitni qaror toptirish orqali yuqori samaradorlikka erishishga zamin yaraladi.

Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishida Prezidentimiz o‘qituvchilarining pedagogik mahorati haqida gapirib «Bugangi pedagoglarning dars o‘tish mahorati etarli emas. Ular o‘quvchilarga faqatgina o‘zi chala bilgan narsalarni o‘rgata oladi, xolos. Sababi o‘qituvchilarining o‘zining ustida mustaqil ishslash va rag‘batlantirishning samarali tizimi yaratilmagan. O‘qituvchi sifatli dars o‘tishga emas, ko‘proq soat olishga intiladi», dedi<sup>63</sup>. Buning uchun har bir pedagog o‘zining kasbiy faoliyatini zamonaviy talablar asosida rivojlantirib borishi va yuksak cho‘qqilarni zabit etish uchun tinmasdan o‘z kasbiy mahoratini oshirish uchun uzlusiz harakat qilishi, o‘zida pedagogik mahoratning muhim tarkibiy jihatlarini mujassamlashtirishi shart.

Pedagog shaxsida kasbiy pedagogik mahoratning mujassamlashganligi ham bevosita o‘qituvchining faoliyatini samarali, jozibali, kreativ, kollaborotiv, kommunikativ tarzda olib borilishiga xizmat qiladi.

Masalan, Vietnam davlatida ta’lim jarayonida o‘quvchilarni maktabga munosabati juda ijobiyidir. Buni ularning maktabda har doim davomatning yuqori bo‘lishi bo‘lishi bilan izohlash mumkin. Vietnamda maktablarida “maktab xursandchilik maskani”(internet materiali) deb qaralar ekan. Demak bunday ijobiy holat Vietnam ta’limida pedagogning yuksak kasbiy pedagogik mahoratni egallaganligidan dalolatdir. SHu bilan bиргалик Finlandiyada talim jarayonida “Yaxshi kayfiyat” orqali bolalar ruhiyatiga ijobiy ta’sir etgan holda ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishga erishmoqda.

O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini rivojlanishida ijtimoiy muhitning muhim ijobiy ta’sirlari pedagoglar faoliyatida, hayotida yuqori natijalarga erishishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi (1-jadval).

---

<sup>63</sup> Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi.

1-jadval

Pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlanishidagi ijtimoiy  
muhitning muhim jihatlari va natijasi

T.R	Jihatlar	Natija
1	Jamiyat	pedagog maqomi, nufuzi, ulug‘ kasbliги Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktabdir” Demak dunyo imoratlari ichida eng ulug‘i maktab bo‘lsa, kasblar ichida eng ulug‘i esa o‘qituvchilikdir
2	Jamoat tashkilotlari (mahalla misolida)	obro‘, e’tibor, hamkorlik, insonparvarlik
3	Ota-onalar	hamkorlik, insonparvarlik, mehr-oqibat, totuvlik, birdamlik
4	Manaviyatli pedagoglari jamoasi	pozitivlik, kommunikativlik, kreativlik, kollobarotivlik, tashabbuskorlik, ongli tanqidiy fikrlash, empatiya(qayg‘urish, hamdardlik)
5	Ruhiy barqaror pedagoglar jamoasi	vazminlik, barqarorlik, yaxshi kayfiyat, pozitivlik, ishchanlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, etakchilik, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini rivojlantirish
6	Rahbarning liderligi, boshqariv ko‘nikmalarining demokratlashganligi	erkinlik, xamkorlik, insonparvarlik, pozitivlik, ishchanlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, tashabbuskorlik, etakchilik, o‘z-o‘ziga ishonch, o‘z-o‘zini rivojlantirish
7	Pedagogda kasbiy pedagogik mahoratning mujassamlashganligi	pozitivlik, kommunikativlik, kreativlik, kollobarotivlik, tashabbuskorlik, ongli tanqidiy fikrlash, empatik samarali, jozibali, kreativ, kollaborotiv, kommunikativ

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yuqoridaagi jihatlarning pedagog faoliyatiga nisbatan amaldagi munosabati o‘qituvchining o‘z faoliyati davomida yanada yuksak marralarni kashf etishga va faoliyatida mazmun, hohish, faoliyatdan qoniqish, kasbidan g‘ururlanish, kasbiga nisbatan mehr kabi fazilatlarni rivojlanishiga olib keladi. Bundan yurt, mamlakat, talim jarayonimiz, xalqimiz maanfaat topadi. Mamlakatimizni rivojlantirish uchun oldimizga quygan ulkan marralarga erishishimizga muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

## XULOSA

O‘qituvchi ma’naviy qiyofasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini bayon qilish orqali quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

Birinchidan. “Shaxsning ma’naviy qiyofasi” degan tushuncha “jamiyatning ma’naviy hayoti” iborasi bilan o‘zaro uzviy aloqadordir. Buning ma’nosи shundaki, shaxsning ma’naviy qiyofasi jamiyatning ma’naviy hayotiga mazmun-mohiyat bag‘ishlaydigan, yangilanish jarayonlarida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadigan tushunchadir. Ma’naviy hayot – ijtimoiy hayotning milliy-ma’naviy qadriyatlarni qaror toptirish, takomillashtirish, inson ma’naviy ehtiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bo‘lgan muhim sohasidir. Jamiyatning ma’naviy hayoti insoniy mazmun-mohiyatga ega bo‘lgan jarayondir, boshqacha aytganda, u faqat insonga xos mohiyatdir.

Ikkinchidan. Shaxs ma’naviyati shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil va vositalar turli-tuman bo‘lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liqdir, ularning har biri jamiyatning faol a’zosi sifatida shaxsni kamolotga olib boruvchi eng muhim determinantlardir. Ushbu omil va vositalar birgalikda shaxsga o‘ziga xoslik (originallik) bag‘ishlaydi.

Uchinchidan. O‘zbekistonda jamiyatning, uning uzviy tarkibiy qismi sifatida shaxsning ma’naviy qiyofasini shakllantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Ayniqsa, yangi O‘zbekistonning ma’naviy poydevorini yaratishda barkamol shaxs kamolotini ta’minlash, inson qadrini ulug‘lash har jihatdan ibratli va ezgu siyoatning amaldagi ifodasi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

To‘rtinchidan. Mamlakatimizda muallimning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish maqsadida bugungi kunda imijmeykerlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, uni yangidan barpo etilayotgan O‘zbekistonning ma’naviy qiyofasini yaratishdek umummilliylar harakatning uzviy tarkibiy qismiga aylantirishni hayotning o‘zi taqoza qilmoqda. O‘qituvchining ma’naviy qiyofasini rivojlantirish va zamon talablariga mos tarzda rivojlantirish – yangi ma’naviy makonga mohiyat bag‘ishlovchi hamda unga yorqin istiqbol ato etuvchi jarayondir.

Beshinchidan. Pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish bugungi kunda yangilanish yo‘lidan dadil odimlayotgan mamlakatlar taraqqiyotida, xususan, o‘z oldiga yangi Renessans davrini barpo etishdek ulug‘vor maqsadni qo‘ygan O‘zbekiston taraqqiyotida ham eng ustuvor masalalardan biriga aylandi. Pedagogning ma’naviy qiyofasini rivojlantirish - mamlakatimizda barkamol avlod tarbiyasi jarayonining eng muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son.
2. «Ta’lim to‘g‘risida». O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2020 yil 24 sentyabr. 03/20/637/1313-son.
3. Shavkat Mirziyoev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 2021. – B.276.
4. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qatiy davom ettiramiz. Yangi saylangan O‘zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoevning lavozimga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi//”Xalq so‘zi”, 2021 yil 7 noyabr, №238 (8018).
5. Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida 2022 yil 28 yanvar kuni “Maktab ta’limini rivojlantirish” bo‘yicha videoelektor yig‘ilishi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 20 dekabr kuni Oliy majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasi. Yangi O‘zbekiston gazetasi. 2022 yil 21 dekabr, 1-3 bet.
7. Prezidentimizning Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 23 avgustdagagi oliy maslis yig‘ilishidagi ma’ruzasi.
8. Mirziyoev Sh. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – J. 2. // Inson manfaatlari va xuquqlarini ta’minlash - demokratik jamiyat asosidir. –Toshkent.: O‘zbekiston, 2018. – 512 b.
9. Mirziyoev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 458 b.
10. Prezidentlikka nomzod Shavkat Miromonovich Mirziyoevnng 2023 yil 26 iyun kuni Samarqandda saylovchilar bilan uchrashuvidanagi saylov dasturidan.
11. O‘zbekistonning yangi saylangan Prezidenti Sh.Mirziyoev inauguratsiya marosimidagi nutqi // “Xalq so‘zi” gazetasi, 2023 yil 15 iyul soni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11-maydagи “2022-2026 yillarda maktab ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-134-sen Farmoni. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 11.05.2022 y., 06/22/134/0407-son.

13. O‘zbekiston Respublika Prezidentining 2023 yil 26-maydag‘i “Maktabgacha va mактаб та’лими vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-79-son Farmoni. - Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 31.05.2023 y., 06/23/79/0302-son.

14. “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. - 2022 yil 29 yanvar. 06/22/60/0082-son.

15. “Xalq ta’limi tizimiga boshqarishning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2018 yil 6 sentyabr. 07/18/3931/1841-son.

16. “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. - T.: Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. - 2019 yil 29 aprel. 06/19/5712/3034-son.

17. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019 yil 24 avgust. - №174 (7404)-son.

18. Karimov I. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliv saodatdir. - T.: “O‘zbekiston”, 2015. – B.298.

19. Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti. Respublika ma’naviyat va ma’rifat kengashi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi. – T.: “Info Capital Group” nashriyoti, 2011. – B.56.

20. Boysunov J. Ma’naviy madaniyatning inson va jamiyat hayotida tutgan o‘rni // Imom Buxoriy saboqlari: ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. – 2021 yil 1-son. – B.117.

21. Normurodov B. Ijtimoiy muhit va uning taraqqiyotdagi o‘rni va roli // Ta’lim– tarbiya jarayonida ijtimoiy muhitning roli. – Qarshi, 2004. – 21 b.

22. Falsafa qomusiy lug‘at. – Toshkent.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2004. – 149 b.

23. Ibragimov A.A. Xalq ta’limi xodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirishning kognitiv mexanizmlarini takomillashtirish.fan.dok.diss..... – Samarqand, 2022.-389 b.

24. Timote Yoker. Finlandiya ta’lim mo‘jizasi. Toshkent, 2023.-254 b.

25. Sultonova G.A. Pedagogik mahorat. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2005.

26. Urishov Sh., Xudoynazarova M., Abdinazarova., Jo‘raeva N. “Pedagogik maxorat” ma’ruza matni. Angren, 2006 yil.
27. Sharq mutafakkirlari asarlarida o‘qituvchi-murabbiy mahorati haqida //<https://fayllar.org/reja-islom-dinining-tarqalishi-quron--dunyo-madaniyatining-ulq.html?page=3>.
28. Ma’naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug‘ati. – Toshkent: G‘ulom nomidagi NMIU, 2009. – B.322.
29. Milliy g’oya va O’zbekistonning tarag’g’iyot strategiyasi //Darslik. – Toshkent: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2020. – B.164.
30. Fayzullaeva G.Sh. O‘qituvchi kasb standartini amaliyotda qo‘llash: kognitiv aspekt. Monografiya. Samarqand, - 2023. – 160 b.
31. Frolov I.T. Izbrannye trudy v 3-x tomax. – T.3. O cheloveke i gumanizme. - M.: Nauka, 2003. – 789 s.;
32. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O‘qituvchi, 1997; Nazarov Q. Aksiologiya: qadriyatlar falsafasi. – T.: O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2001;
33. Komilov N. Tasavvuf. - T.: “Movarounnahr”-“O’zbekiston”, 2009; Shayxova X.O. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2009 va h.k..
34. Yusupov E. Inson kamolotining ma’naviy asoslari. – T.: Universitet, 1998. – B.34.
35. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo‘raev N. Vatan tuyg‘usi. – T.: O’zbekiston, 1997.
36. Qarshiboev M. Taloto‘pdan uyg‘unlik sari. – T.: Ma’naviyat, 1997. –B.7-12.
37. Saifnazarov I. Ma’naviy barkamollik va siyosiy madaniyat. –T.: SHark, 2001. –B. 14.
38. Muxtorov A. Yuksak ma’naviyatli sog‘lom avlodni tarbiyalash - maksadimiz // Mustaqil O’zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari (Ma’ruzalarning qisqacha matnlari). –T., 2000. –To‘plam. O‘zRFA –B. 105-108.
39. Tulenova G.J. Yoshlar ma’naviyati va kamolotni oshirish taraqqiyot zaruriyati (Mustaqil O’zbekiston falsafafanlarining dolzarb muammolari) // (Ma’ruzalarning qisqacha matnlari). –T., 2000. – To‘plam. O‘zRFA. –B.103.
40. Qiyoфа-vikiluq’at uz // [wiktionaru.orq](http://wiktionaru.orq).
41. Uzbeksko-russkiy slovar. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyyati, 1988. – B.640).

42. Ruscha-o‘zbekcha lug‘at. - Toshkent: Qomuslar Bosh tahririyati, 1983. – B.686.
43. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 1-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 469-bet.
44. Nazarov Q. Jahon falsafasi qomusi. 2-kitob. – T.: “Ma’naviyat”, 2019. – 522-bet.
- 45.Oila ensiklopediyasi. – Toshkent: “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2019. –B.127.
46. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – Toshkent:”O’zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
47. Filosofskiy slovar / Pod red.akad.I.T.Frolova.- M.: Politizdat, 1991. –S.291; Falsafa: qomusiy lug‘at. – Toshkent: “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004. – B.132 va b.
48. Mitina L.M. Lichnostno-professionalnoe razvitiie uchitelya: strategii, resursy, riski. – 2018 // kartaslov.ru > Larisa Mitina.
49. Kochina O. Nrvastvennaya kultura pedagoga. // solincesvet.ru – 2016.
50. ru.wikipedia.org > wiki / Disterveg,\_Adolf.
51. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: “Ma’naviyat”, 2007. – B.198.
52. Quronov M. Biz anglayotgan haqiqat. – Toshkent: “Ma’naviyat”, 2008. – B.140.
- 53.Haydarov K. Yangilanayotgan O‘zbekistonda ma’naviy qadriyatlarning tiklanishi va uning uzluksiz ta’lim tizimidagi ahamiyati. Falsafa fanl.dokt. dissert. – Samarqand, 2022. – B.22.
54. Haydarov K. Ta’limda kognitiv jarayonlarni faollashtirishning ilmiy-metodik talqini // Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiyasi materiallari/ - 2023 yil 27 iyun. – Samarqand, 2022. – B.606.
55. Qaxxorova M. Oila muhiti barqarorligida ma’naviy-axloqiy tarbiya muammosi.
- 56.Hoshimov K., Safo Ochil. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. “O‘qituvchi” nashriyot-matba ijodiy uyi. Toshkent-2010,424 b.
- 57.Musurmonova O. Pedagogik texnologyalar – ta’lim samaradorligi omili. Monografiya.Toshkent, - 2020. – 184 b.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA  
VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI**

**SAMARQAND VILOYATI PEDAGOGLARNI YANGI  
METODIKALARGA O'RGATISH MILLIY MARKAZI**

**O'tanov O'tkir Qurbanovich**

**O'QITUVCHI MA'NAVIY QIYOFASINI RIVOJLANTIRISH  
(Uslubiy qo'llanma)**  
“Bilik ilmiy faoliyat” nashriyoti

**Muharrir:** Fayzullayeva G.

**Texnik muharrir:** Xujakulov Sh.

**Nashrga tayyorlovchi:** Abdullayev F.



**№ 098355**

**ISBN: 978-9910-9530-9-5**

“Bilik ilmiy faoliyat” nashriyoti,  
Joylashgan mazili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,  
Zavod ko‘chasi 9-uy, 10-xona. Faoliyat manzili Samarqand viloyati, Samarqand shahar,  
X.Olibdinov ko‘chasi 7-uy.  
tel.: +998 97-925-97-91

Terishga berildi: 04.05.2024-yil. Bosishga ruxsat etildi: 20.05.2024-yil.

Bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>, “Times New Roman” garniturası.

Bosma tabog‘i 6,5. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 2023/40

Bahosi kelishilgan narxda

Noshirlik litsenziyasi: № 098355

---

Samarqand viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish  
milliy markazibosmaxonasida nashr etildi

